

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK (372.0:371.3)

“Umumiy pedagogika” kafedrası

Ismailov Murodulla Qaxramonovichning

**“Oila va ta’lim muassasasi hamkorligi asosida o‘quvchi-yoshlarda sog‘lom
tafakkurni shakllantirish texnologiyasi”**

Mutaxassislik: 5A110901-Pedagogika nazariyasi va tarixi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat
Magistratura bo‘limi boshlig‘i
_____ M.Esanov
2016 y «___»iyun

Umumiy pedagogika kafedrası
mudiri, p.f.n., dotsent
_____ B.X.Xodjayev
Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent
_____ B.X.Xodjayev

Toshkent-2016 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining nazariy asoslari	
1.1. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi konsepsiyasining mohiyati.....	9
1.2. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida.....	15
1.3. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	28
I bob bo'yicha xulosalar.....	37
II bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning amaliy-texnologik jihatlari	
2.1. Oila va ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ishlar va hamkorlik usullari.....	38
2.2. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi.....	50
2.3. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining didaktik ta'minoti.....	58
II bob bo'yicha xulosalar.....	69
III bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining samaradorligini o'rganish natijalari	
3.1. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni.....	71
3.2. O'quvchi-yoshlar tafakkurining shakllanganlik darajasi va ularda «sog'lom tafakkur» tushunchasi mohiyatining anglanilishi.....	75
3.3. Oila va ta'lim muassasasi faoliyati diagnostikasi va buning o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri.....	79
3.4. O'quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi va uning o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri.....	85
III bob bo'yicha xulosalar.....	91
Xulosa	92
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	93
Ilovalar	97

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Erkin demokratik jamiyat qurish yo‘lidan ildam borayotgan mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Oila tinch, mustahkam va farovon bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Bu esa o‘z navbatida ma‘naviy va ruhiy muhitning sog‘lomligi, islohatlar muvaffaqiyati uchun tegishli zamin yaratadi.

Ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat‘iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Avvalambor, 1997 yildan boshlab yurtimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy masalalarni yechish maqsadida kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilish, katta-katta ishlarni amalga oshirish uchun yillarga nom berish an‘anasiga muvofiq 2000 yilni "Soglom avlod yili", 2008 yilni "Yoshlar yili" 2010 yilni esa "Barkamol avlod yili" deb atalishining o‘zi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Hozirgi o‘tish jarayonida fuqarolar, ayniqsa yoshlarning ongi va dunyoqarashi qay darajada shakllanishiga befarq qarab bo‘lmaydi. Kelajakda barkamol, bilimdon va ishbilarmon jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan, ongli va faol, Vatan oldidagi burchiga sadoqatli, sog‘lom tafakkurli shaxsni tarbiyalash barchamizning burchimiz. Tafakkuri sog‘lom shaxs mutaassiblikdan ozod holda aql-idroki, kuch-g‘ayratiga tayanib, vijdonan, halol mehnati bilan faravon turmushga intiladigan bo‘lishi darkor. Barkamol avlod tarbiyasi va ularning mukammal ta‘lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. 2010 – yil Prezidentimiz tashabbusi bilan “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilingani bejiz emas albatta. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e‘lon qilindi. Ushbu qarorda davlat dasturi doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar belgilanib, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturining 11 ta asosiy

yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.¹

I.A.Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 14-sessiyasida "Biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan atrofda sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil yondashadigan har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak" deb ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ta'lim muassasalarida joriy etish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shunga binoan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvuni uyg'unlash-tirish bo'yicha hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning umumiy qoidalaridan biri bo'lgan "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qolaversa o'quvchi-yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish orqali o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda"².

Ammo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi kun, bugungi davr bu sohadagi ishlarni yaxshilash yoshlarni manfaatlarini ta'minlashga va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishni taqazo etmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviy boylik sifatida irodali insonlar borasida quyidagi fikrlarni bildiradilar: "Hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi, keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar mavjud. Shunday paytda ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori. // Xalq so'zi, 2010 yil 28 – yanvar.

² O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. 1997-y. 29-avgust – B.4-5.

kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi".³

Demak, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning fikrlashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Zero, **tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishidir. Tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz va shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Hozigi kunda ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy – axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, hayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib ijtimoiy hayotga keng ko'lamda tadbir etilib kelinmoqda.

Shunday qilib, mazkur ishning nazariy jihatdan dolzarbligi oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, bu esa bir qator pedagogik muammolarni hal etishning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur ish oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlanadi. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish va uning texnologiyasini ishlab chiqishni pedagogik jihatdan o'rganish oila va ta'lim muassasasi hamkorligining shakllari va nazariy asoslari, o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila va ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ishlar va hamkorlik usullari to'g'risidagi mavjud tasavvurlarni kengaytiradi.

Tadqiqotning pedagogik amaliyot uchun dolzarbligi uning natijalaridan oila va ta'lim muassasasida o'qitish hamda tarbiyalashda shuningdek ularda sog'lom

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.123.

tafakkurni shakllantirish maqsadlari uchun foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Tadqiqot ob'yekti – o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish mazmuni, omillari, imkoniyatlari va texnologiyasi.

Tadqiqotning maqsadi - oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining nazariy asoslari va o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir ilmiy ishlar, adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish.

2. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish.

3. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish.

4. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining didaktik ta'minotini yaratish.

5. Oila va ta'lim muassasasi faoliyati diagnostikasi hamda o'quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash va uning o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning yangiligi.

1. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

2. Oila va ta'lim muassasasi faoliyati diagnostikasi amalga oshirildi.

3. O'quvchilarda o'quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi o'rganildi hamda uning sog'lom tafakkurni shakllantirishdagi ta'sir imkoniyatlari yoritib berildi.

4. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining didaktik ta'minoti yaratildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalaridagi yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir kontseptual g'oyalar, sog'lom avlodni shakllantirishga doir davlat dasturlari, shaxs rivojlanishiga doir nazariyalar, pedagogik qonuniyatlar va ilmiy tafakkur uslublari.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi mavzusida maxsus dissertatsiya yoki boshqa to'laqonli tadqiqot ishlari hozircha qilinmagan bo'lsada, bir qator olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlarida bu masala u yoki bu tarzda yoritilgan. Shular jumlasiga E.G'oziyev, O.Musurmonova, V.Karimova, O.Xasanboyeva va boshqalarning "Oila psxologiyasi", "Odobnoma", "Oila pedagogikasi" darsliklarida hamda M.Qarshiboyev, S.Nishonova asarlarida oila va maktab hamkorligida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash masalalari o'rganilgan bo'lsa, M.L.Abdujabborova va N.O'.O'rinboyevlarning nomzodlik dissertatsiyasi ishlarida o'smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profillaktika masalalari, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda sog'lom turmush tarzining o'rni masalalari o'rganilgan.

Mustaqillik yillarida oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik shakllarini yanada takomillashtirish, o'sib kelayotgan yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish masalalari yoritilgan ko'plab maqolalar, asarlar chop etilgan. Har tomonlama yetuk bo'lgan barkamol, tafakkuri sog'lom avlodni voyaga yetkazishda oila va ta'lim muassasasi ning ahamiyati katta ekanligi birinchi galda Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida har tomonlama keng yoritib berilgan.

Tadqiqotning farazi:

Agar:

- 1) oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish mazmuni yoritib berilsa;
- 2) ijtimoiy, psixologik-pedagogik omillarning o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishdagi ta'siri aniqlashtirilsa;
- 3) o'quvchilarda o'quv faoliyati motivatsiyasi yanada rivojlantirilsa hamda ularning mustaqil ta'lim olishi tizimli yo'lga qo'yilsa;
- 4) o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilsa;
- 5) o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etishning didaktik ta'minoti yaratilsa, mazkur jarayon samarali amalga oshadi.

Tadqiqot metodlari: umumnazariy (analiz, sintez, analogiya, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, modellashtirish va boshq.); umumpedagogik (me'yoriy hujjatlar va manbalarni o'rganish tahlil etish, suhbat, so'rovnoma, faoliyat natijalarini o'rganish, pedagogik eksperiment); diagnostik (ekspert baholash); matematik-statistik.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari: tadqiqot ishi quyidagi ikki bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich (2014-2015 yillar)da dissertatsiya mavzusi yo'nalishidagi ilmiy-metodik adabiyotlar, mamlakatimizda va xorijda olib borilgan tadqiqot ishlari o'rganildi, tahlil qilindi; oila va ta'lim muassasasi hamkorligi shakllari o'rganildi, tahlil qilindi va oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqich (2015-2016 yillar)da oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining didaktik ta'minoti yaratildi; o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari dasturi ishlab chiqildi; tadqiqot ishining

natijalari tahlil qilindi, umumlashtirildi va dissertatsiyani rasmiylashtirishlari yakunlandi.

Tatqiqot natijalarining nazariy ahamiyati: tadqiqot faoliyati jarayonida olingan natijalar oilaning ijtimoiy-pedagogik vazifalari, oila va ta'lim muassasasining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, tafakkur, uni shakllantirish va rivojlantirishga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tatqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: tajriba-sinov ishi davomida ishlab chiqilgan texnologiya o'qituvchilarning o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyatini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi tuzilmasi: 3 ta bob, 10 ta paragraf, har bir bob bo'yicha xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 6-jadval, 5-rasm va ilovalardan iborat.

I bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining nazariy asoslari.

1.1. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi konsepsiyasining mohiyati

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq, har tomonlama uyg'un rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish milliy tarbiyamizning bosh maqsadi sifatida belgilab olindi. Mazkur maqsadga erishishning uzviyligi, uzluksizligini ta'minlash maqsadida «Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi» tizimi yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, dunyo hamjamiyati tomonidan O'zbekiston an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtira olgan, o'ziga xos milliy tarbiya tizimi yo'lga qo'yilgan insonparvar davlat sifatida tan olindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, aniqrog'i, 1993-yilda hukumat tomonidan qabul qilingan «Oila, mahalla va maktab hamkorligi kontsepsiyasi» tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish, yoshlarni istiqloq g'oyalari sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar, sog'lom tafakkur egasi etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum daturilamal xizmatini bajardi.

Mazkur kontsepsiyada oila, mahalla va maktabning o'zaro hamkorlik jarayonidagi vazifalari aniq belgilab berilgan. Ko'rsatilgan vazifalar bugungi kungacha boqichma-bosqich amalga oshirilib, o'zining samarali natijalarini berdi. Biroq bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, integratsiya va globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashni talab etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasida qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash va oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Yoki bo'lmasa, «insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan

uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni»⁴ tarbiyalashni nazarda tutadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yosh avlodga o'zligimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish.

Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yutni yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash oila, maktab va mahalla hamkorligi kontsepsiyasining mohiyatini tashkil qiladi.

Amaliy tajriba hozirgi vaqtda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb muammolarni kun tartibiga qo'ymoqda:

1) yoshlarda g'oyaviy immunitetni yanada oshirish, ularni «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish;

2) yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

3) yoshlarda oilaviy hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish;

4) yoshlarda ma'naviy - axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

5) yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirishga doir chora tadbirlar tizimini rivojlantirish;

6) yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash;

7) yoshlarda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini, yaxlitlikda tolerantlik madaniyatini shakllantirish;

8) yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar tizimiga kiruvchi oila, mahalla, bilim olish, Vatanga muhabbat, yurt tinchligi kabi tushunchalar haqidagi bilimlarini yanada boyitish;

⁴O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. 1997-y. 29-avgust – B.12.

9) yoshlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali «axborot madaniyati»ni tarkib toptirish;

10) yoshlarning pedagogik-psixologik bilimlarini boyitish, sog'lom turmush tarzini hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi shakllarini samarali tashkil etish orqali sog'lom tafakkurni shakllantirish;

11) yoshlarni internet va kompyuter o'yinlariga tobelikdan himoyalash va boshqalar.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, g'oyaviy va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Har bir millatning o'ziga xos xarakteri, har bir millat oilasining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

O'zbek oilalarida ajdodlar tafakkuri va aql zakovati bilan yaratilgan ma'naviy meros alohida o'rin egallaydi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sihalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Mana shular asosida yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, oilada ma'naviy madaniyat oila a'zolarining harakatlari, voqelikni baholay olish salohiyati, axloqiy bilim va tajribalari, ulardan foydalana bilish qobiliyati, yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy vaziyatlarni farqlash va hakozi omillar bilan ham bog'liq.

Mazkur muammoni hal etishga doir oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligi quyidagi tizimga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi shakllari

a) asosiy bosqichlari:

- yosh oilalar bilan ishlash;
- maktabgacha ta'lim yoshi (3-6yosh)dagi bolalar bilan;
- kichik maktab yoshi (6-11yosh)dagi bolalar bilan;

- o'smir yosh (11-16 yosh)dagi bolalar bilan;
- yoshlar (16 yosh va undan yuqori yosh) bilan ishlash.

b) asosiy ish shakllari:

- individual;
- guruhli, kichik guruhlarda;
- ommaviy.

s) hamkorlikni tashkil etishda asosiy yetakchi tamoyillar:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'zaro birgalikdagi faoliyat;
- jarayonga yaxlit, majmuaviy va texnologik yondashuv;
- uzviylik va uzluksizlik;
- nazariyaning amaliyot bilan birligi;
- individuallik, ko'rgazmalilik;
- ijodiylik, faolik.

d) oila va ta'lim muassasasining asosiy hamkorlik yo'nalishlari:

- yoshlarda g'oyaviy immunitetni yanada oshirish;
- «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish;
- yoshlarda sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni shakllantirish;
- yoshlarda oilaviy hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish;
- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishga doir chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

- o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash;

- yoshlarda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini, yaxlitlikda tolerantlik madaniyatini shakllantirish;

- yoshlarning pedagogik-psixologik bilimlarini boyitish, sog'lom turmush tarzini hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi shakllarini samarali tashkil etish orqali sog'lom tafakkurni shakllantirish;

- yoshlarni internet va kompyuter o'yinlariga tobelikdan himoyalash.

e) ustivor vazifalar:

1. «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi»ga doir yangi kontsepsiyasini ishlab chiqish.

2. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini rivojlantirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

3. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini rivojlantirishda davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlarning rolini oshirish.

f) kutiladigan natija:

Ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq muammolarni hal etishda «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi»ga erishiladi.

Yuqoridagi tizimning asosiy tarkibiy qismlaridan biri jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar asosida har tomonlama barkamol va sog'lom tafakkurli insonni shakllantirishda oila va ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirishda bosqichlari va ularning har birida bajariladigan vazifalarni aniq belgilab olishdan iborat.

Oila va ta'lim muassasalari hamkorligining bosqichlari va vazifalari:

1. Yosh oilalar bilan ishlash:

- yosh oilalarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- oilada sog'lom muhitning qaror topishiga erishish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash: maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishga erishish.

3. Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash: Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash.

4. O'smir yoshidagi bolalar bilan ishlash: o'smir yoshidagi bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, mustaqil fikrlash hamda yuksak burch va ma'suliyatni qaror toptirish.

5. Yoshlar bilan ishlash: yoshlarning kasbiy shakllanishlari, mustaqil oilaviy hayotga tayyotgarliklarini ta'minlash hamda ularda fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish.

Kontsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda 1998-yil «Oila yili», 2014-yil «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi⁵.

Shuningdek, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar»⁶ - deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3.2-bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan.

Bu oila, maktab va mahalla hamkorligi bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli Qarori. 1998yil 26 mart.

⁶ Qarang: Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. – B.6-29.

1.2. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida

Ma'lumki, jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi, madaniyat, san'at, fan va ta'lim rivoji, zamonaviy fan texnika yutuqlari bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur e'tiroflarni hisobga olgan holda, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayonida shaxs tafakkurini rivojlantirish muhim vazifa deb ta'kidlangan. Bugungi kunda mustqil, erkin ijodiy fikrlay oladigan mutaxassislariga ehtiyoj juda katta. Yurtboshimiz I.A.Karimov bu borada quyidagi fikrlarni bildirgan: «Demokratik jamiyatda har bitta shaxs, umuman inson erkin fekr yuritishga haqlidir. Agar biz farzandalarimizda erkin, mustaqil va tanqidiy tafakkur yurita oladigan shaxsni rivojlantirmas ekanmiz, ta'limning ijobiy samarasini kutish noo'rindir. Bunda albatta, ota-ona, o'qituvchi, maktab, qolaversa butun jamiyat mas'uldir. Bilim, albatta, zarur narsa, biroq fikrlash va tafakkur – bu ulkan boylikdir».

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotini inson tafakkuri va aqliy salohiyati, ma'naviyati va madaniyati belgilab beradi. Insondagi ushbu hislatlar bevosita ta'lim dargohlarida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois ham yosh avlodlarga ta'lim – tarbiya berish, ularning intellektual bilimlarini, tafakkurini rivojlantirish va ularni qo'llab quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlardan sanaladi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: «Nima uchun o'quvchi- yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish kerak?». Biz o'quvchi-yoshlar deganda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'lim oluvchilarni tushunamiz. Yosh davrlari va pedagogik-psixologiyada bu davr ilk o'spirinlik davri deb nomlanadi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o'rta maktabni tamomlab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishi) bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar o'quvchi shaxsiga, uni o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayot haqida yetarlicha tasavvurlarga ega bo'lmaydilar, balki unda ishtirok etadilar. O'spirinlik davrida billishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb etib boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazalarga qiziqishi kuchayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada rivojlanib boradi, mantiqiy xotirasi, eslab qolishning oqilona yo'li sifatida ta'lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq boyligi ham rivojlanadi. O'spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o'rganib boradi.

Aynan ilk o'spirinlik davridan o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish pedagogika-psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki, sog'lom tafakkur insonga o'rganayotgan bilimlarini analiz, sintez qilish imkonini beradi. To'plagan bilimlar asosida esa mushohada yuritish, yangiliklarni, g'oyalarni, yangi bilimlarni anglash va muammolarni hal etishda eng to'g'ri, qisqa va samarali yo'lni topishga yordam beradi. Sog'lom tafakkur o'quvchi-yoshlarda qaror qabul qilishda mustaqillik, javobgarlik, o'zining g'oya va fikrlarini shakllantirishda, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirishida muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur ko'pgina fan sohalarining tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, falsafa fani materiya bilan tafakkurning o'zaro munosabatini, shuningdek, tafakkur yordami bilan olamni bilish (anglash) yo'llari va imkoniyatlarini o'rganadi. Formal logika esa tafakkur formalari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish)ni tekshiradi. Tafakkurning sotsiologik aspektida uning jamiyatning turli formasiyalariga sotsial strukturasi bog'liq ravishda tarixiy taraqqiyot jarayoni tahlil qilinadi. Fiziologiya fanida tafakkurni yuzaga keltiruvchi miya mexanizmlari tadqiq etiladi. Kibernetika fanida EHMlarda insonlarning fikrlash faoliyati informatsion jarayon tariqasida umumiy va xususiy jihatlari yoritib beriladi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xarakteriga, obyektning subyekt uchun yangiligi,

shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga ajratib tadqiq qilinadi. Bunda tafakkur fikrlash faoliyati sifatida qaralganda, inson tomonidan muammoning (topshiriq) yechimini topish nazarda tutiladi. Bu borada topshiriq shartlari va subyekt oldiga qo'yiladigan shartlar, qo'yilgan shartlar mohiyatining inson tomonidan anglanilishi, shuningdek, mazkur shart va talablarning inson tomonidan qabul qilinishi va boshqa jihatlar sinchkovlik bilan kuzatiladi hamda o'rganiladi. Shu o'rinda, topshiriqning yechimini topish shaxsning ehtiyoji va motivlari bilan bog'liq holda olib qaraladi, fikr yuritish faoliyatida muammo yechimini qidirishni boshqarishda insonning hissiy kechinmalari alohida rol o'ynaydi.

Psixologiya tafakkurning filogenetik, ontogenetik, kognitiv, tarixiy, operatsional va funksional jihatlarini ham tadqiq etadi.

Pedagogika fanida esa, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishi, ijtimoiylashuviga, unda bilim, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi, o'qitish jarayonida bola ongining rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Tafakkur va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar murakkab bo'lganligi hamda bu masalalar shaxs rivojlanishida muhimligi bois insoniyat tarixining uzoq davrlaridan boshlab har bir zamonning ilg'or kishilari – donishmandlarining o'rganish va kuzatish obyekti bo'lgan.

Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hyyom, Alisher Navoiy, Avloniy va boshqalar aql, tafakkur, ijodiy yondashish haqida o'z fikrlarini bildirganlar.

Buyuk olim Abu Nasr Forobiy (850-950) aql orqali tafakkur yordamida bilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Tafakkur mavhumlikka, umumiylik, bilvositalilikka, ya'ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega deb tushuntiradi. Avvola har qanday insonning mohiyati uning aqlida ekanligiga alloma diqqatni qaratib, quyidagi fikrni keltirib o'tgan: "Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati harakatda namoyon bo'ladi"⁷. Forobiy

⁷ Karimova V. M., Sunnatova R.I. "Mustaqil fikrlash". - T.: SHarq. – 2000. 6 b.

ta'limotiga ko'ra, tafakkur orqali inson materiyaning sezgilarga noma'lum bo'lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, ilm-fan to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladi.

Forobiy tushunishni, bilishning mohiyatini, o'qib – anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi va o'quvchilarga tafakkurning umumiy qonun va qoidalarini anglatish nihoyatda muhim ekanligini yozadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Forobiyning ijodiy fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi davrga qadar ham ahamiyati buyukdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) – ta'lim va tarbiya masalalariga chuqur qiziqqan. Insonning boshqa mavjudotlardan tafakkuri ajratishini ta'kidlab o'z g'oyalarini ilgari suradi. Insonda tafakkurning mavjudligi va uni aql bilan ish ko'rganligi uchun ham yerdagi barcha hayvonlar unga bo'ysunadilar, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bo'lar edi. Beruniy o'zining mashhur “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ma'naviy mamnuniyat konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko'ra: “Oqil kishi hamma narsani aql-idrok va farosat bilan his qilgandagina ma'naviy mamnuniyat sezadi, holbuki, beg'am odam jismoniy lazzatnigina tan oladi”. Inson tafakkurining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkinligi haqida ta'lim beradi. Beruniy bu inson ongining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. U bilish lozim bo'lgan hodisa va voqeani maydalab, bo'lib-bo'lib o'rganishni, tahlil qilish metodini ilgari suradi. Ruhiyat, ong va tafakkur barcha hodisalarning ta'siriga bog'liqdir. Chuki inson tafakkuri doimo voqeani bilishga qaratilgandir. “Ammo, inson - deydi Beruniy – narsa va hodisalarning faqat sifat hamda hissiy bilish darajasida to'xtab qolmaydi, balki narsalarni chuqur va atroflicha bilish, shu narsalar haqida fikr yuritishni talab qiladi”.

Shunday qilib, alloma tafakkurning analiz, taqqoslash, solishtirish kabi operatsiyalarini ilgari suradi va tafakkurning ushbu xususiyatlarini rivojlantirish

lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) "Tayr" (qush), "Hayy ibn Yaxson" kabi qissalarida insonlarni bilim olishga chaqiradi: "Bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar". "Hayy ibn Yaxson" qissasida dunyoni va insonlarning fe'l atvorini, tabiatini chuqurroq tushinish uchun ilmni, mantiqni bilishga da'vat etadi. Chunki bu ilm kishi didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqida shunday deydi: "Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandur. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoni fe'l – atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan"⁸.

Ibn Sino o'zining bir qator asarlarida ("Tush ta'biri", "Tib qonunlari") kishini o'rganish orqali ko'p narsalarga erishish mumkinligini va bunda albatta aql, farosat, tafakkur qo'llanilishi lozim ekanligini bayon etadi. Bemor shaxsini, uning mijoz toifasini, fe'l-atvorini bilish uchun aql, farosat darkor bo'lishini ta'kidlaydi. Buning uchun esa avvola insonda badan salomatligi, ruh salomatligi va aql salomatligi lozim ekanligini uqtiradi.

Amir Temur (1336-1405) odob – axloq, iymon e'tiqod va aql-zakovatda yuksaklikka, mukammallikka erishgan komil siymolardan biridir. U "har kimdan kengash oldim, har kimdan fikr o'rgandim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida so'zlab, ishlata bildim", - deb yozadi⁹. Bu bilan Sohibqiron barcha jamiyat a'zolari shaxslararo muloqotni amalga oshirishni, mazkur jarayonda esa ular bir-biri bilan o'zaro fikr almashinuvini, qimmatli fikrni zarurat tug'ilganda maqsadga muvofiq tadbiq etishni ta'kidlaydi. Buyuk sarkardaning o'giti sifatida bizga qoldirgan merosi – kengashish, muzokara qilish, mulohaza yuritish, fikr almashinish mashqlari, fikrlashni takomillashtirishning asosi bo'lib hisoblanib, bizningcha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa va yechimga kelish hamda sog'lom tafakkurni shakllantirishning mexanizmidir.

⁸Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev). – T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1995y. – 91-110 b.

⁹O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi. 1995. 1-jild. 238 b.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodi falsafiy-badiiy majmua xazinasining aynan o'zginasidir. Bu ijodiyot xalq ijtimoiy hayotining turli jabhalaridan umumlashgan bo'lib, u umumiydan xususiyga va xususiyan umumiyga aylanib turadi. Xalqning ijtimoiy hayoti va yakka shaxsning biror xususiyati yo'qki, u buyuk alloma diqqatini o'ziga tortmagan bo'lsin, jumladan, inson tafakkuri haqida ham "Farhod va Shirin" dostonida u shunday yozadi:

"Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod"¹⁰

Shunday qilib, A.Navoiy inson tafakkurining buyuk qudratga ega ekanligini ta'kidlashdan tashqari uning "aqlli" va "aqtsiz" odamlar tasnifiga bergan ekspert bahosi alohida e'tiborga molik. Allomaning asarlarida bu tushuncha 27 o'rinda ishlatilgan bo'lib, uning 27 darajasi va 27 sifati haqida fikr yuritgan. Xususan, aqlning turli sifatlari quyidagicha tavsiflangan: aql aqli – xushyor ong egalari; aql vosvosi – aql vasvasasi; aql dehqoni – ongli tushuncha, mulohaza, tajribali, ongli kishi; aql kuyi – aql – idrok yo'li; aql mezoni – ong, aql o'lchovi, aql tarozisi; aql muhandislari – donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql oldida – ongli tushunish bo'yicha, aqlan; aql piri – tafakkur ustozlari farosatli kishilar; aql sarrofi – aql zargari, aql baholovchisi; aql uyi – miya, fikri-hayol; aql xirmoni – aql mujassamligi; aql chiri – aql kuchi, aql quvvati; aql eshigi – aql yo'li, ongli yo'l; aql o'ti – zehn o'tkirligi, hushyorlik; aql qushi – bunga izoh shart emas; aql hisobi – ong doirasi, chegarasi; aqli xudbin- faqat o'zini o'ylovchi shaxs; aqli tanqidiy – o'tkir, sezgir, nozik aql va hokazolar.

Shunday qilib, mutafakkir aqlni rangbarang jihatlarga ajratib, ularga asoslangan holda ikki toifali aql sohiblari bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarishga qaror qiladi: nekbin aql egalari va xudbin aql egalari. Birinchilaridagi aql insoniyatga ezgulik keltirib, o'z sohibini ham baxtli qilsa, ikkinchilari – aksincha, o'z manfaati yo'lidagina aql ishlatib, o'zgalarga ziyon yetkazadilar, xolos.

¹⁰ Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev). – T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1995y. – 91-110 b.

Demak, mutafakkir orzu qilgan komil inson jismonan sog'lom, nekbin aql egasi va ma'naviyati yuksak bo'lish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Umar Xayyom (1048 - 1123) o'quvchilar bilimlarini to'la, chuqur va ongli ravishda o'zlashtirishlari, ko'nikma va malakalarni egallashlari hamda ularning mustaqil bilim o'zlashtirishga tayyorlash yo'llari to'g'risida ko'plab fikrlarni bergan. Umar Xayyomning ta'kidlashicha, o'quvchilar bilimlarini faqat o'qituvchining bergan ma'lumotlari va kitob o'qish bilangina emas, balki hayotiy hodisalarni bevosita o'rganish jarayonida, ko'nikma va malakalarni esa amaliyotda ayni bir harakat va amallarni qayta-qayta takrorlash, turli operatsiyalar va shu kabilar natijasida ham egallab oladilar.

Xulosa qilib aytganda, alloma ta'limda xilma xil metodlar qo'llashni tavsiya etadi. Ayniqsa, ta'limni amaliyot bilan birga olib borish zarurligini uqtiradi. O'quvchilar bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlari zarurligi aytiladi. O'quvchilarning mustaqil izlanib bilim olishi, ijodiy mehnat bilan shug'ullanishi ularda sog'lom tafakkurni shakllantirishda muhim o'rin tutishi barchamizga ma'lum.

Abdulla Avloniy (1878 - 1934) yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi muhim hayotiy masalalarni ko'tarib chiqqan, ularni to'g'ri hal qilishga uringan. "Fikr tarbiyasi, - deb yozadi adib "Turkiy guliston yohud axloq" asarida, - eng keraklisi, ko'p zamonlardan beri tanqid qilib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan vazifadir. Fikr insonning ma'rifatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi"¹¹. Olimning fikricha, bolaning aqliy rivojlanishi, ma'naviyati yuksalishida avvalo oila va o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qaysi asrda yashashidan qat'iy nazar sharq allomalari o'z asarlarida insonning aql-zakovati, tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadilar va buni o'z asarlarida talqin qiladilar. Yosh avlodda mustaqil, ijodiy va sog'lom tafakkurni rivojlantirish asrlar davomida ham dolzarb muammo bo'lib kelgan.

Quyida xorij va Vatanimiz olimlarining shaxs tafakkuri haiqdagi qarashlari hamda olib borgan tadqiqot ishlari natijalarini keltirib o'tamiz.

¹¹Avloniy A. "Turkiy guliston yohud axloq". – T.: O'qituvchi. 1992. 1-jild 15 b.

Inson tafakkurini o'rganish muammosi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib eng keng targ'ib qilinadigan, tadqiqotlar va tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammoga aylangan. G'arb olimlari o'z tadqiqotlarida tafakkur muammosiga har tomonlama yondashishga harakat qilganlar va o'z tadqiqotlari predmetiga aylantirganlar.

Ekzistensializm asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1976) «o'z diqqatimizni tushunish uchun qarata olsakina, biz fikrlashga o'rganamiz» - deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish inson fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilamydi.

Olimning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati – bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga asosan tasavvur fikrda, ifodada bayon etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta'limot logika (mantiq) deb ataladi.

Rus olimi P.I.Ivanov o'zining tadqiqotlarida inson tafakkurini uning faoliyati bilan bog'lab o'rgangan bo'lib, o'zining darsligida «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiyashtirib aks ettirishga (bilishga), hamda insonning samarali amaliy faoliyati bilan shug'ullanishga imkon beradi» deb ta'kidlagan.

M.V.Gamezo fikricha «Tafakkur voqelikni umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligini bayon qiladi.

O.K.Tixomirov tafakkur haqida quyidagicha fikr bildirib o'tgan: «tafakkur – bu o'z mahsuli bilan voqelikni umumlashtirib, bevosita aks ettirishni xarakterlaydugan, umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq holda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir».

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni prognoz qilish, oldindan payqash xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Zamonaviy o'zbek psixologiyasi va pedagogikasi fanida ham tafakkur muammosi qator tadqiqotlar obyektiga aylangan. Inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bilan bog'liq tadqiqotlar, ilmiy risola va maqolalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tafakkur yuritish, sog'lom tafakkur va inson tafakkuri ko'rinishlari muammosi munozaralar obyekti sifatida olimlar diqqat e'tiboridadir.

M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Sh.Shodmonova, J.Musayev, S.Ataxanovalar biz ko'targan muammoni ya'ni, fikrni tarbiyalash, mantiqiylik, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrni ifodalash, mustaqil va sog'lom tafakkurni shakllantirish muammolarini uyg'unlashtirgan holda o'z tadqiqotlarida yoritib berdilar.

M.G.Davletshin o'quvchilarda mustaqil tafakkur rivojlanishiga katta e'tibor beradi. Olimning ta'kidlashicha, «Hozirgi maktablarning asosiy vazifasi ta'lim metodlarini takomillashtirishdir. Maktabning vazifalari haqida gap borganda kishining hozir o'qitilayotgan fanni, hozirgi ijtimoiy – siyosiy munosabatlarni tushunib olishga ancha mos tushadigan tafakkur saviyalari haqida to'xtalib o'tish mumkin. Bu talablarga tafakkurning ilmiy-nazariy (dialektik) saviyasi javob beradi»¹².

E.G'.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida aqlning eng muhim sifatlaridan – tafakkurning mustaqilligi ajratiladi. Muallif tafakkurning bu muhim sifatini quyidagicha belgilaydi: «Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, ya'ni vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz(gipoteza)lar qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy jarayonni tushunish kerak»¹³.

Z.T.Nishonovanning «Mustaqil fikrlash shaxs xislati» ilmiy maqolasida ijodiy fikrlashning quyidagi xususiyatlari keltirilgan: mazmundorlik, mantiqiylik,

¹² M.G.Davletshin va boshqalar. Ta'limning psixologik asoslari. O'quv qo'llanma – T.: O'QITUVCHI. 1995y. B.20.

¹³ E.G'.G'oziyev «Tafakkur psixologiyasi», T.: O'qituvchi. 1990y. 59b.

dinamiklik, keng qamrovlilik, pog'anaviylik, to'g'ri va teskari yo'nalganlik, uzluksizlik. Muallif fikricha, mustaqil ijodiy fikrlash quyidagi tuzilishga egadir:

- 1) muammo mohiyatiga kirish motivi;
- 2) shaxiy ahamiyat kasb etuvchi motiv;
- 3) muammo yechimini topish uchun aqliy va uslubiy vositalarni tanlash;
- 4) saralangan aqliy va uslubiy vositalarni amaliyotga tadbiq etish;
- 5) yechish vositalariga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish;
- 6) yechim to'g'riligini baholash va tekshirish;
- 7) fikrlashdan (tafakkurdan) qoniqishning shaxsiy ma'naviy ahamiyat kasb etishi;
- 8) yakka bilish holatidan uzluksiz xususiyatga ega bo'lgan shaxs sifatiga aylanishi¹⁴.

Z.T.Nishonova yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bo'yicha turli mashqlar to'plamini ishlab chiqqan. Bundan tashqari u mustaqil fikrlash sifatlarini ham ajratib ko'rsatadi:

1. Elementar tafakkur jarayonlarining shakllanganligi – ya'ni tahlil qilish, analiz, sintez, taqqoslash, muhim jihatini ajratish;
2. Tafakkurning faolligi, uning erkinligi, ya'ni nostandart g'oyalarning tug'ilishi jarayonidagi erkinlik va bir g'oyadan ikkinchisiga o'tishdagi egiluvchanlik;
3. Tafakkurning tashkillanganligi va maqsadga yo'nalganligi, boshqacha qilib aytganda, har bir inson tomonidan o'zi tafakkur qilishi yoki fikrlash jarayonlariga xoslikni anglash va uni nazorat qilish.

Shu o'rinda tafakkur tushunchasiga ta'rif beramiz. Tafakkur – bu inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, real olamni aks ettirishning umumlashgan bevosita usuli bo'lib, obyektlar orasidagi bog'liqlik, bilish jarayoni, yangi bilimlarni ochish, ijodiy, muammoli masalalarni yechishga qaratilgan psixik jarayondir.

¹⁴ Z.T.Nishonova «Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi». Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2005. B.9-10

Psixolog olim Noynerning “Ijod – omad zaxirasi” (“rezerv uspexa - tvorchestvo”, 1989) deb nomlangan monografiyasida quyidagi fikr keltirilgan: “O’quvchining o’z qarashlari mavjud bo’ladi, atrof-muhitdan, shart-sharoitdan kelib chiqqan holda unda qaysidir jihati, darajasi bilan mavjud fikrlash shakllangan bo’ladi. O’quv-tarbiya jarayonining rahbarlari tomonidan esa u rivojlantiriladi”. Bundan ko’rinadiki, o’quv jarayoni o’quvchilarning mustaqil fikrlashi va tafakkurining rivojlanishida asosiy o’rin tutadi.

J.Musayev o’zining “O’quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish” nomli monografiyasida quyidagi fikrni bildirgan: “ o’quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda aynan ijtimoiy- gumanitar ta’lim jarayonining imkoniyatlari kengroq hisoblanadi. Shu bois, bu fanlarning o’quvchilarda mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish jarayonidagi ahamiyatini his etgan holda, o’quv jarayonlariga ijodiy yondoshish o’zining samarali natijalarini beradi”. Shuningdek o’quvchida mustaqil fikrlashni ta’minlovchi quyidagi omillarga o’z e’tiborini qaratgan:

- o’quvchilarda nazariy bilimlarning mavjudligi;
- mavjud muammolarni tahlil eta olish ko’nikmalarining shakllanganligi;
- o’zgalar fikrini tinglay olish ko’nikmasiga egaligi;
- o’z faoliyatini maqsadli tashkil eta olishi;
- orttirilgan tajribalarga tayana olishi;
- atrof-muhit bilan ishchan muloqot o’rnata olishi¹⁵.

Sh.Shodmonova o'zining talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarida shaxslararo munosabatlarda tafakkurning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy munosabatlar va tarbiyaviy jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratgan (inson-inson, inson-tabiati-inson, inson-texnika-inson, inson-san'at-inson munosabatlari)¹⁶.

S.Ataxanova o’zining tadqiqotchilik faoliyati davomida tafakkur tushunchasining psixologik, pedagogik va falsafiy mazmunini ochib bergan hamda

¹⁵ J.Musayev. O’quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. 2010y. 10-16b.

¹⁶ Sh.Shodmonova. Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish. Monografiya. 2011y. B.34-40

sogʻlom tafakkur insonning ichki va hissiy faoliyati bilan bogʻliqligini, u sogʻlom fikrga yoʻnaltirilsa sogʻlom tafakkur shakllanishini taʼkidlagan. Aqliy faoliyat mavjud bilim va malakalarni egallash vazifasidir. Hissiy faoliyat esa sogʻlom turmushga boʻlgan hissiy munosabatni anglatadi.

Tadqiqotchining fikricha, sogʻlom tafakkur ilmiy-pedagogik taʼrifga koʻra, quyidagi bir necha muhim boʻgʻinlardan tashkil topadi:

- Birinchi boʻgʻin – sogʻlom tafakkur tushunchasi;
- Ikkinchi muhim boʻgʻin – zarur ijtimoiy muhit tushunchasi;
- Uchinchi muhim boʻgʻin – pedagogik maqsad va natija tushunchasi;
- Toʻrtinchi muhim boʻgʻin – sogʻlom turmush va turmush tarzi tushunchasi hisoblanadi¹⁷.

Shuningdek, “sogʻlom tafakkur” tushunchasiga toʻxtalib, u kishilarning oʻz salomatligini asrashga yoʻnaltirilgan oʻylari, ongi, shuuri, hissiyotlari, axloqi, estetik qarashlari, gʻoyalari, saʼy-harakatlari va ularning natijasi hisoblanadi.

Istiqlol davrida mamlakatimizda oʻquvchining mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishga boʻlgan metodologik yondoshuvlar quyidagilarda oʻz ifodasini topdi:

a) taʼlim mazmunini oʻquvchining mustakil fikrlash faoliyatiga yoʻnaltirish asosida oʻquv-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalarini belgilash orqali mustakil fikr yuritish uchun shart-sharoitlar yaratish;

b) oʻquv-texnika vositalaridan samarali foydalanish jarayonida oʻquv mashgʻulotlarini oʻquvchilarning ehtiyojlari asosida tashkil etish, qiziqishlari doirasida fan yoʻnalishidagi mavjud maʼlumotlarni etkazish;

v) taʼlim-tarbiya jarayonini hamkorlikda tashkil etish yuzasidan ota-onalar, mahalla faollari, mutasaddi tashkilot rahbarlarining oʻquvchilar tafakkurini rivojlantirish faoliyatiga boʻlgan munosabatini demokratlashtirish;

¹⁷ S.Ataxanova “Innovatsion taʼlim jarayonida tafakkur”. Ilmiy maqola. “Sogʻlom avlod uchun” ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014y. 5/4-5b.

g) o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish yo'nalishida olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirish orqali ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini samarali tashkil etishga erishish;

d) o'quv jarayonlarini ilg'or tajribalar asosida boyitish orqali o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatidagi faol ishtirokini ta'minlash, berilgan har qanday o'quv jihozidan o'rinli foydalana olish malakasini shakllantirishni ta'minlash;

e) o'zaro axborot almashinish jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarni faol, sog'lom tafakkur yurituvchi sub'ektga aylantirish.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, mazkur tadqiqotlarda o'quvchilarda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida sog'lom tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari yoritilmaganligi ma'lum bo'ldi.

A. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish uchun dastlab amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar:

- 1) pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlarni o'rganish;
- 2) o'quvchilarning o'zlashtirishi, mustaqil ta'lim olish faoliyatini tahlil qilish;
- 3) ta'lim muassasasining yillik ma'naviy-ma'rifiy tadbir-ish rejalarini o'rganish;
- 4) ota-ona va o'qituvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarini tashxis etish;
- 5) ta'lim muassasasining ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik faoliyatini o'rganish

B. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladigan amaliy-ishlar:

- 1) ota-onalar, o'quvchilar va o'qituvchilarda sog'lom tafakkur yuritish haqida nazariy bilimlarni shakllantirish;
- 2) oila va ta'lim muassasasining hamkorlik shakllarini takomillashtirish;
- 3) ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish;
- 4) oila va ta'lim muassasasi hamkorligida tashkil etiladigan tadbirlar sonini ko'paytirish;

5) sog'lom tafakkurning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish;

6) o'quvchilarda axborot iste'moli madaniyati, sog'lom turmush tarzi, inson tafakkuri, tafakkur jarayonlari haqida nazariy bilimlarni hosil qilish;

7) o'quvchilarning sog'lom tafakkurini shakllantirishda qo'llaniladigan eng samarali metod, vosita, usul va shakllarni aniqlashtirish;

8) o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini yaratish va amaliyotga tadbiq etish.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlarda va o'tkazilgan ilmiy ishlarda inson tafakkurining shakllanish nazariyalari, tafakkur jarayonlari, o'quv faoliyatining inson tafakkurini shakllanishiga ta'siri, shaxsda mantiqiy tafakkurni, tanqidiy tafakkurni shakllantirish, ijodiy va mustaqil fikrlash kabi masalalar kengroq yoritilganligining guvohi bo'ldik.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib "sog'lom tafakkur" tushunchasi mazmunini quyidagicha talqin etishimiz mumkin: sog'lom tafakkur insonga o'rganayotgan bilimlarini analiz-sintez qilish imkonini beradi. To'plagan bilimlar asosida esa mushohada yuritish, yangiliklarni, g'oyalarni, yangi bilimlarni anglash va muammolarni hal etishda eng to'g'ri, qisqa va samarali yo'lni topishga yordam beradi. Sog'lom tafakkur o'quvchi – yoshlarda qaror qabul qilishda mustaqillik, javobgarlik, o'zining g'oya va fikrlarini shakllantirishda, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea – hodisalarga munosabat bildirishida muhim ahamiyatga ega.

1.3. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar

Hozirgi kunga kelib, ta'lim-tarbiya jarayonida e'tibor qaratilayotgan eng muhim masalalardan biri - bu o'quvchi-yoshlarda sog'lom fikrlashni, tafakkur mustaqilligini, aqlning tanqidiyligini darsda va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilik fikriga suyangan holda rivojlantirishdan iboratdir. Bizga ma'lumki, o'quvchi tafakkurining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar

hisoblanadi: oila, ota-ona munosabatlari, oiladagi sog'lom tarbiya va sog'lom muhit, ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlar jamoasi.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, g'oyaviy va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyatturlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari tafakkurining rivojlanishida darsdan va sinfdan tashqari mustaqil mashg'ulotlar, mutolaa qilish muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan har xil to'garaklarda qatnashish o'quvchi bilimni chuqurlashtirib, bilim doirasini kengaytiradi. Agarda to'garaklar shaxsiy tashabbus asosida hukm sursa, yigit va qizlar ularga qatnashsalar, ijodiy izlanish zaminiga qurilsa, u holda ko'zlangan natijaga erishiladi. Gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha tuziladigan to'garaklar, olimpiadalar, konkurslar, ta'lim amaliyotida yaxshi samara bermoqda. To'garaklarning ta'siri ostida o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, aqlning tanqidiyligi, nutq madaniyati va texnikasi, notiqlik san'ati o'sadi. Shuningdek, o'qish va o'qitish jarayonida fikr yuritish operatsiyasini jadallashtiruvchi omilkor usullardan oqilona foydalanish yuqori samaraga erishtiradi.

Inson hayotini fikrsiz, fikrlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Olimlar inson tafakkurining shakllanishida ijtimoiy muhit ta'sirining mohiyatini ochib beradilar: «fikrlashni jamiyatga bog'liq hodisadir deyish mumkin». Tasavvur qiling: sizda biror muammo yoki masala yuzasidan fikr bor, ya'ni mustaqil yoki tanqidiy fikringiz bor, bu fikr sizga juda ma'qul va uni siz mantiqan asoslangan deb hisoblaysiz. Agar shunday ishonch, hattoki e'tiqod bo'lsa, siz albatta, kimlar bilandir uni o'rtoqlashish ehtiyojini sezayotganligingizni anglaysiz. Agar uning «pishib yetilganiga» biroz bo'lsa ham ikkilansangiz, bu fikrni birovga aytmay qo'ya qolish yoki juda yaqin kishingizga bildirishga harakat qilasiz. Demak, paydo

bo'lgan yangi fikr odamni boshqalar bilan muloqotda bo'lish, ular bilan o'rtoqlashishga undaydi. Ayni shu jihati tafakkurning ijtimoiyligidan darak beradi.

Quyida mazkur yondashuvlarni ochib beruvchi tadqiqotchi olimlarning ilmiy xulosalarini va fikrlarini keltirib o'tamiz.

Venger sotsiologi M.Komlosi fikricha bolalarning tarbiyasi va o'qishga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit)ni quyidagi guruhlarga bo'ladi:

- ota-onalarning jamoatchilik faoliyati;
- oila a'zolari davrasidagi munosabatlar;
- ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati;
- oilada bolalarning faoliyati.

K.P.Megrelidzening ta'kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib to'g'ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda inson tafakkuriga bog'liqdir. Tafakkurni ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas. Inson tafakkurining usullari nerv sistemasida ham, miyada ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga , o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlarning fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo'ladi, bu haqda Megrelidze shunday yozadi: «Inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Alohida individning fikri ijtimoiy yetilgan fikrlarning xususiy ko'rinishidir. Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar va tasavvurlar yordamida fikrlaydi.

Fikrlar va g'oya erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkur, tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan, an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu

indivud jamiyatda yetilgan ijtimoiy g'oyalarning «tasodifiy» ifodalovchisi bo'lib qoladi».

Amerikalik pedagog-psixolog Dj.Dyui tafakkurning ijtimoiy psixologik mohiyatini fikr tarbiyasi muammosiga bog'lab o'rgangan olimlardan biri. Uning fikricha: «tajriba va bilimlar fikr manbai hisoblanadi. Agar shaxs muammo bilan qisman tanish bo'lsa, u muammoni hal qilish uchun fikrlashi mumkin. Agar shaxs oldida muammo tursa-yu, bunday sharoitni o'z ichiga olgan tajriba bo'lmasa shaxs fikrlamaydi»¹⁸.

Muallifning ta'kidlashicha, hayratlanish har qanday fanning onasidir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchida hayron qolish uchqunini so'ndirmaslik, qiziquvchanlik alangasini o't oldirish hamda atrofda bo'layotgan narsa va hodisalarga mushoda orqali yondashishni tarbiyalashdan iboratdir.

Djon Dyui tafakkurning rivojlanishini inson taraqqiyotining genezisi bilan bog'lab, barcha omillari orasida bolaning tashqi ijtimoiy muhitga intilish odatini muhimdir deb hisoblagan. Bola dastlab hayotiy va ijtimoiy bilimlarni oilada o'zlashtiradi. Mazkur muhitdagi shaxslararo munosabatlar va tarbiyaning to'g'ri tashkil etilganligi bolada tabiatan doimo o'zi atrofdagilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga bo'lgan moyilligi oshishini ta'kidlaydi. U o'zining «Biz qanday o'ylaymiz?», «Logika», «Ta'lim tamoyillari va amaliyotiga kirish», «Jamiyat va uning muammolari» kabi qator asarlarida pedagogika va psixologiya fani har bir masalada jamiyatning ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanishi qonuniyatlarini yoritishga yordam berishini ifodalagan.

Xususan, uning tafakkur va fikrlashga oid fikrlari o'ziga xos bo'lib, «tafakkur» kategoriyasidan ko'ra , «fikrlash», «mulohaza yuritish» degan tushunchani ishlatishni afzal ko'radi. U bu bilan «mavjud tajribani anglash va yangi qarorlar, fikrlarning mujassamlshuvi» jarayonini tushunadi. Fikrlovchi ong ishlashi uchun, olimning fikricha, uni doimo mashq qildirishi, yangi odatlar bilan boyitib borishi kerak, deydi.

¹⁸ Dj.Dyui «Psixologicheskaya i pedagogichkaya mishleniya». – M.: Sovershenstvo. 1998y. B.41.

K.Rodgers (1996) tadqiqotlarida ham o'smirlarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun uni qo'llab-quvvatlash, imkoniyat yaratish lozimligini ko'rishimiz mumkin. O'z vaqtida bildirilgan fikr, g'oya insonda ichki xotirjamlikni va o'z-o'zidan qoniqishni keltirib chiqaradi, deydi olim.

V.Karimova o'zining qator maqola va risolalarida, shaxsning jamiyatdagi mavqei va undagi yuksak insoniy fazilatlarning fikrlash jarayonidagi mustaqil mavqeiga bog'liqligiga, shuningdek mazkur jarayaonda oila, ta'lim-tarbiya jarayoni masalalariga jamoatchilik diqqatini qaratib, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini bajarish jarayonidagi ta'lim islohotlarida eng avvalo o'quvchilar va talabalarning mustaqil fikrlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish va bunda eng avvalo o'quv faoliyati kechadigan ijtimoiy psixologik muhitning yetakchi rolini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan «o'zini anglagan, bilgan, hayotda o'z o'rnini his qila olgan odamnigina miyasiga fikr keladi, tafakkur qiladi va qolaversa, u bu fikrlarini o'zgalarga izhor qilib yetkazishi ham mumkin bo'ladi». «Qanday fikrlash» muammosiga e'tibor qaratgan muallif, aslida fikrni ilk yoshlikdan tarbiyalash lozimligini ta'kidlaydi va uning mezonlariga e'tibor beradi. «Agar bolada yoshligidanoq har bir narsa hodisaning o'ziga xos tomonlarini ko'ra olish, ijodiy yondashuv bo'lsa, demak, uning tafakkuri ijodiy, egiluvchan, moslashuvchan bo'lib, aynan shularda mustaqil tarzda mulohaza yuritish kuzatiladi. Ijodkorlar tund va konservativ fikrlardan farqli, yana turli ziddiyatlar, ongda o'rnashib qolgan eskicha qarashlarni inkor qilish kerak bo'lsa, undaylar bilan talashib-tortishishga moyil bo'ladilar»¹⁹. Demak, mustaqil va sog'lom tafakkur uchun «muhit kerak, bu muhit albatta bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tobelikni chegaralovchi ijtimoiy psixologik muhitni auditoriyada shakllantirish uchun o'qituvchi munozara metodlaridan keng foydalanishi lozim».

O'quvchi yigit va qizlar tafakkurining mustaqillik darajasini vujudga kelishida o'qituvchi shaxsining roli juda katta. Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarda o'rganilayotgan qonuniyat va xossalar to'g'riligi haqida ishonch tuyg'usini hosil qiladi, o'tilayotgan mavzular mazmuni bo'yicha qanoatlanish hissini vujudga keltiradi,

¹⁹ Karimova V.M. Fikr tarbiyasi va mustaqil fikrlash. – «Ma'rifat» 1999.

voqelikni isbot qilishga, bildirilgan mulohazalarni dalillashga o'rgatib boradi. Shuning bilan birga, sanab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun, qo'yilgan muammoni hal etish uchun qulay usul va metodlardan foydalanish yo'l – yo'riqlari bilan qurollantirib boradi. Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilarni tanishayotgan narsa va hodisalar bo'yicha original, yangicha fikr yuritishga, har bir holatga ijodiy yondashishga o'rgatadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun u ularni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtiradi va foydalanish yo'llarini tushuntiradi. Uchinchidan, o'qituvchi o'quvchilar tomonidan qo'llanaverib, eskirgan, arxaik-eskirgan terminga aylangan so'z va iboralardan kamroq foydalanishga, shablondan-bir xillikdan hamisha qochishga o'rgatadi, ularni ijodiy izlanishlari sari etaklaydi. To'rtinchidan, o'qituvchi o'quvchilar oldiga bilimlarni amaliyotda tadbiiq qilish vazifasini muammo tariqasida qo'yadi. Beshinchidan, o'qituvchi o'quvchi yigit va qizlarning individual (shaxsiy) xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud aqliy imkoniyatlarini o'qishga, ijodga safarbar qilishga intiladi. Oltinchidan, o'qituvchi yuqori sinf o'quvchilari diqqatiga muammoli vaziyatni, jumboqni va topshiriqni havola qiladi va qo'yilgan masalalarni echish va hal qilish bosqichlari bilan atroflicha tanishtiradi, shuningdek har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga ularni da'vat etadi. Ettinchidan, o'qituvchi o'quvchilarning his – tuyg'usi va irodaviy xususiyatlarini yanada mustahkamlash uchun yaqqol yo'l – yo'riq ko'rsatadi, maxsus psixologik ko'rsatmalar (ustanovka) beradi, qiyinchiliklarni engish va ularning oldini olish vositalari bilan o'rtoqlashadi.

E.Z.Usmonova tafakkurning eng muhim tavsifi – bu tafakkur va nutqning eng yqin hamda o'zaro bog'liqligidir, deb ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikricha: «u yoki bu fikr qanchalik o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq va yaxshi ifodalanadi. Aksincha, qandaydir bir fikrning so'zlar yordamida shakllanishi tushunarli bo'lib boradi. Agar biz o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishni xohlasak, unda o'quvchilar nutqini rivojlantirishimiz, ularni o'z nuqtai-nazarini himoyalashga o'rgatishimiz, ularni asoslab bera olishlikka, boshqacha nuqtai-nazarlarni eshita bilishga, tortishuvlarga o'rgatishimiz kerak»²⁰.

²⁰ E.Z.Usmonova. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston. 1990y. B.4.

Bola shaxsi va tafakkurining rivojlanishida oilaning o'rni yuqori ekanligini alohida ta'kidlagan psixolog olim G'.Shoumarov: «Baxtli bolalik bu – oiladagi quvonchu hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir», - deb ko'rsatib, oilani quyidagi toifalarga bo'ladi:

1. Ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishidagi oila.
2. O'zaro ziddiyatlik yo'nalishga ega bo'lgan oila.
3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishidagi oila.

Birinchi toifadagi oila a'zolari ishlab chiqarishda faol, jamoatchi, madaniyatli va bolalarida ham shuni tarbiyalaydilar.

Ikkinchi toifadagi oilada umumbashariy yo'nalish uzil-kesil hal qilinmagan bo'ladi. Bunday oila a'zolari o'z istak, xxohish, motivlaridan kelib chiqib «o'z aravasini o'zi tortadi» va bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurash ketadi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda ko'pgina meshchanlik udumi va ideallari hukm suradi. Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan tortib yuksak g'oyalarga, umumbashariy ishlarga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, shaxsiy qiziqishni boshqarish xislati, qat'iylik, qaadr-qimmat, samimiyluk kabi yuksak insoniy tuyg'ular, kechinmalar shakllana boshlaydi.

S. Ataxanova talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish masalasiga to'xtalib, quyidagi xulosaga kelgan: birinchidan, ularni ma'naviy-estetik jihatdan tarbiyalash, ikkinchidan, ularning jamiyat hayotidagi muammolarga nisbatan faol nuqtai-nazarini shakllantirish, uchinchidan, ularning istiqbolda butun jamiyat salomatligini muhofaza qiluvchi ijtimoiy guruh sifatida talqin qilinishi uchun asos bo'ladi. Demak, sog'lom tafakkurga talaba-yoshlarning shaxsiy barkamolligini ta'minlovchi vosita sifatida qaralsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda pedagogik-psixologik tadbirlar va jarayonlar majmui haqida so'z ketganda, avvalo sog'lom tafakkurning ham psixologik, ham falsafiy, ham pedagogik kategoriya ekanligini nazarda tutish zarur. Chunki, sog'lom tafakkur ularning barchasini o'z mazmunida mujassam etadi. Agar sog'lom tafakkurning faqat pedagogik-psixologik jihatlariga

e'tibor qaratsak, sog'lom tafakkur shakllanishida bir necha o'ziga xos bosqich va jarayonlar amalga oshishi ayon bo'ladi. Ular:

a) o'zida avvalgi bilim va malakalar, ijtimoiy holat va tajribalarni tahlil qilish jarayoni. Bu jarayonning bosh xususiyati shundaki, mavjud tushuncha mohiyati uni tashkil qiluvchi muayyan birliklarga bo'linadi, ya'ni tushunchaning tarkibiy qismlari ajratiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchaning, birinchidan bilimlar majmui, ikkinchidan, alohida holda malakalar majmui tartiblashtiriladi va aniqlanadi;

b) mavjud bilim va malakalarni sintez qilish jarayoni. Avvalgi jarayonda maxsus ravishda birliklarga bo'lingan tushunchaning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holdagi umumlashma xarakteri oydinlashtiriladi;

d) qiyosiy taqqoslash jarayoni, barcha mavjud bilim va malakalarni qiyosiy o'rganish asosida ulardagi o'xshash va farqli bo'lgan o'ziga xos tomonlari anglanadi va qabul qilinadi. Bu jarayon tushunchaning tarkibiy qismlari ichidagi aloqadorlikni, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi omillar mazmunining aniqroq anglab olinishiga yordam beradi;

e) tasniflash jarayoni, sog'lom tafakkurga oid barcha bilim va malakalar, uning tarkibiy qismlari va mazmuni mavjud xususiyatlarni birlashtirish orqali guruhlashtiriladi. Guruhlashtirish tushuncha mohiyatini umumiy holda yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Guruhlashtirish tushuncha mazmuni ichidagi mantiqni anglashga yordam beradi. Klassifikatsiyalashda guruhlashtirish tarkibiy qismlar xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

f) umumlashtirish jarayonida, sog'lom tafakkurga oid bilim va malakalar ulardagi mavjud eng umumiy tomonlar va xususiyatlar asosida guruhlashtiriladi;

j) aniqlashtirish jarayonida, sog'lom tafakkur tushunchasining xususiy tomonlari uning umumiy tomonlaridan ajratiladi. Ya'ni, sog'lom tafakkur ichidagi har bir tushunchaning ichki xususiy tomonlariga aniqlik kiritiladi, keyin esa umumlashtiriladi;

h) abstraksiyalash jarayoni, sog'lom tafakkurning biror jihatini, boshqalarini inobatga olmagan holda kuchaytirish va bo'rtirib anglashga yo'naltiradi. Ya'ni,

sog'lom tafakkur aslida bir necha o'nlab o'zining turli qirralari bilan zamonaviylik kasb etadi. Mana shu jarayonda sog'lom tafakkurning biror jihati boshqa jihatlariga nisbatan bugun dolzarbroq bo'lishi mumkin. Ammo keyinchalik ijtimoiy voqelikda ijobiy o'zgarishlar qilinganidan so'ng, mazkur dolzarblik o'z o'rnini boshqa muammolarga bo'shatib berishi mumkin. Masalan, bugungi kunda sog'lom tafakkur doirasidagi bilim va malakalar tizimida eng muhim bo'lgan muammolardan OITS, yoshlar o'rtasidagi norkamaniya, toksikamaniya, odam savdosi kabi masalalar so'ngi o'nyilliklarda aynan mana shu qirralarga alohida urg'u berilishini talab etadi.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, mazkur bosqichlar sog'lom tafakkur shakllanishi uchun har bir inson u yoki bu darajada hamma pedagogik-psixologik bosqichlardan ongli ravishda o'tishi lozim. Shaxs mana shu bosqichlardan o'tgandagina, uning tafakkurida to'liq va mukammal holda barcha talab etilgan sog'lom tafakkur doirasidagi bilim va malakalar shakllanishi mumkin.

Sog'lom tafakkurni shakllantirish uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, aqliy qobiliyat imkoniyatlariga, aqliy o'sish ko'rsatkichiga, mazmundorligiga, fikrning teranligi va chuqurligiga, tashabbuskorligi va sermahsulligiga, o'quvchining o'quv fanlariga qiziqishiga, nutq madaniyati va so'z boyligiga, shaxsiy pozitsiya va nuqtai nazariga, e'tiqodi va dunyoqarashiga, o'quv faoliyatining usullarini egallaganlik darajasiga, o'z - o'zini boshqarish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z - o'zini baholash, o'z - o'zini qo'lga olishga, salomatligi haqida qayg'urishiga, bilimlar tizimining darajasiga, o'quv ko'nikma va malakasini, fikr yuritish shakliga (hukm, xulosa chiqarish, tushuncha, terminlardan foydalanish imkoniyatiga), mantiq operatsiyasiga (asoslash, isbotlash, dalillash, izlanish, ishonch hosil qilish) alohida e'tibor berishi o'qitish samaradorligini oshirish garovidir.

I bob bo'yicha xulosa

Mazkur bobda dastlab, «Oila, maktab va mahalla hamkorligi» konsepsiyasining mohiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Buning natijasida, barkamol avlodni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar hamkorligining benihoya muhimligi, hamkorlikning huquqiy me'yorlari o'rganildi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida o'rganilganligi hamda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan o'rganildi va tahlil qilindi.

O'rganilgan adabiyotlar tahliliga binoan, bugungi kungacha inson tafakkuri muammosi ko'pchilik tadqiqotchi-olimlarning o'rganish obyekti bo'lgan. Jumladan, chet el olimlari L.S.Vigotskiy, Dj.Dyui, Martin Xaydeger, R.I.Ivanov va o'zbek olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, Z.T.Nishonova, J.Musayev, Sh.Shodmonova, N.Saitova va boshqa olimlar inson tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirishga oid o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

S.Ataxanova sog'lom tafakkurning mohiyatini ochib berishda quyidagi asosiy bo'g'inlarini ajratib ko'rsatgan: 1) «sog'lom tafakkur» tushunchasi; 2) zarur ijtimoiy muhit tushunchasi; 3) pedagogik maqsad va natija tushunchasi; 4) sog'lom turmush va turmush tarzi tushunchasi

Demak, yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, “sog'lom tafakkur” tushunchasi mazmunini quyidagicha talqin etishimiz mumkin: sog'lom tafakkur insonga o'rganayotgan bilimlarini analiz-sintez qilish imkonini beradi. To'plagan bilimlar asosida esa mushohada yuritish, yangiliklarni, g'oyalarni, yangi bilimlarni anglash va muammolarni hal etishda eng to'g'ri, qisqa va samarali yo'lni topishga yordam beradi. Sog'lom tafakkur o'quvchi – yoshlarda qaror qabul qilishda mustaqillik, javobgarlik, o'zining g'oya va fikrlarini shakllantirishda, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea – hodisalarga munosabat bildirishida muhim ahamiyatga ega.

II bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning amaliy-texnologik jihatlari

2.1. Oila va ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ishlar va hamkorlik usullari

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila va ta'lim muassasasi bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur, dunyoqarash va tafakkur shakllanadi hamda rivojlanadi.

Bola oilaning timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk shu kichik jamoa orasida anglaydi.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Shu tufayli, barkamol avlodning shakllanishida oilaning tutgan o'rnini inkor etib bo'lmasligi bizning milliy qadriyatlarimizda ham o'z aksini topgan.

Milliy istiqloлга erishgandan so'ng o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligini, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi, oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyatini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbek xalqining aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilaning, qarindosh urug'lar va oila a'zolari to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa uning oliy darajadagi ma'naviy qadriyati va inson qalbining gavharidir»²¹.

Oilada bolaning barkamol shaxs sifatida rivojlanishida, unda sog'lom tafakkurning shakllanishida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Obyektiv omillar sirasiga: oilaning moddiy ta'minoti va farovonligi, shu bilan birga maishiy turmush darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va boshqalar kirs; oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik-

²¹Karimov A.I. «Barkamol avlod orzusi». 1998y. 78b.

psixologik, madaniy jihatdan komillik va ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, birlik tamoyillariga tayanish va shu kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish – bu ularda vaqtdan maqsadli va unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish demakdir. Demak, oilaning vazifasi jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnatga va oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berish ekan, buning uchun oila tarbiyasi mazmuni ijtimoiy tarbiyaning yo'nalishlari: jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy tarbiya berish, ularda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunga kelib, yurtimiz hayotida ro'y berayotga o'zgarishlar, dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar, ularning yoshlar ongiga, insonlar tutmush tarziga ta'sir ko'rsatayotganligi, buning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish shart. Bu esa, oilaning, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, vazifalarini yana bir bor ko'rib chiqishni taqozo etadi, albatta.

Muataqillik yillarida qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillahtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, **birinchidan**, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

- **ikkinchidan**, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan,

el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- **uchinchidan**, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

- **to'rtinchidan**, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

- **beshinchidan**, yosh avlodni ulug'ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash mamlakatimizda yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Shunigdek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:

- **birinchidan**, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

- **ikkinchidan**, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

- **uchinchidan**, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga;

- **to'rtinchidan**, insondagi mavjud salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga;

- **beshinchidan**, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy va keng dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigankomil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu kontsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla,

ta'lim muassasasining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tadbiq etishni taqozo qiladi.

O'quvchi-yoshlarni bilimli, sog'lom tafakkurli barkamol shaxs etib shakllantirishda «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarda ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini egallashga, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishiga sharoit yaratib berishi;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai-nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada ma'suliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

- oila, mahalla va ta'lim muassasasi oldida o'z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;

- salomatligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-hunar o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi asosiy burchi farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallimqo'lga topshirish, savodini chiqarish, ilimli, kab-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi jarayonida mahallaning vaifalari quyidagilardir:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatishi;

- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;

- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

- ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milli odob, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

- yoshlar diniy mazxablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'g'itlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

- turli jamg'armalar xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;

- mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish, turli yo'nalishda iqtidori bolgan o'quvchilarni ta'lim muassasasining tavsiyasiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- ilg'or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko'rsatish;

- farzandlariga ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida «Oila saboqlari» mashg'ulotlarini tashkil qilish;

- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va «Ustoz-shogird» rusumida bilim va kasb o'rgatish faoliyatini tashkil qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun bo'sh ish-joy o'rinlari ajratilishiga erishish;

- har bir yosh fuqaroda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik hissini shakllantirish.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi jarayonida ta'lim muassasasining vaifalari: yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim muassasasi va o'qituvchilarning asosiy vazifalari Ozbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ta'lim sohasiga oid qabul qilingan me'yoriy hujjatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi kerak, ya'ni:

- ta'lim muassasasida o'quvchi-yoshlarga biron bir kasbkorni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

- o'quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishiga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish;

- ta'lim berishda ilg'or pedagogik taexnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tshkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash;

- o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy, tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

- o'z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish;

- tarbiyasi «og'ir», qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;

- farzandlar tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarni ommalashtirish;

- o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'inlarida muhokama qilish;

- tarbiya subyektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijogiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhokama qilish va «Ekosan», «Qizil yarim oy», barcha jamg'arma va tashkilotlar, jamoatchilik markazlari, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalarini, mahalliy booshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish;

- turar joylarda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi – ta'lim muassasasi bo'lishiga erishish;

- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;

- ta'lim muassasalari Nizomi asosida o'quvchilarning ta'lim muassasasida joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida o'qishga qatnashishlarini ta'minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarinni rag'batlantirish;

- ta'lim muassasasi negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar universitetlari» faoliyatini tashkil qilish.

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada tuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak ma'suliyati;

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustivorligi;

- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilish, «Yosh onalar va otalar maktablari» faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'gan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealar bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda

bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhleri, «Yakshanbalik maktablari» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z hatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimlga chanqoqlik va aql-zakovatini hisobga olgan holda iyjimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhleri va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. (16 yosh va undan yuqori) dunyi andozalriga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4-bo'lim 6-bandida «Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi» deb belgilab berilgan.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahalla faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhleri tuzishi

mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlar musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandalari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biron-bir dolzarb mavzuda favqulotda mahalla yig'inlari, ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'analari tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bosh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yingohlar, madaniyat markazlari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, ta'lim muassasasi va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masla, muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot hamda idoralari ish rejalariga, amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Ushbu kengashlar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida tashkil qilinishi va kengash a'zolarining barcha davlat hamda nodavlat

tashkilotlariga, jamg'armalarga, jamoatchilik markazlariga va turli tashkilotlarga o'z vakolatlari doirasida murojaat qilishlariga imkoniyat yaratilishi kengash vazifalarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hamda hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligida o'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan birga qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik bilimlar mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari «Sog'lom avlod uchun», «Ota-onaga hurmat», «Odobingga balli», «Sog' tanda sog'lom aql», «Mehr chashmasi», «Qizlar ibosi», «Bir yigitga qirq hunar oz», «O'g'lim - posbonim», «O'zbekiston Vatanim manim», «Milliy burch va ma'suliyat», «Oilaviy hayot saboqlari», «Oila etikasi», «Oila tinch – mahalla tinch», «Mustaqil hayot ostonasida», «Askarlik – yigitlik maktabi», «Oila baxti – Vatan baxti», «Sportchi oila», «Sport va men», «Vatan ostonadan boshlanadi» kabi turli xil mavzulardagi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar.

a) ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar. Suhbatlar yakka hamda umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy madaniyatni qaror toptirish muvaffqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarida ijtimoiy anketa so'rovnomalarini o'tkazish mumkin. So'rovnomalar ikki xilda bo'lib, ulardan birinchisi, har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar

ma'naviy madaniyatini shakllantirishga ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir.

b) guruh ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida uch marta o'tkaziladi, ya'ni o'quv yili boshlanishi oldidan hamda I va II semestr yakunida. Majlislarda o'quv muassasasi ichki tartib-qoidalariga umumjamo'a ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holati, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil qilinadi, navbatdagi davr uchun qilinadigan ishlarni ijobiy hal etish chora-tadbirlari belgilanadi. Ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya olayotgan, jamoa hayotida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida faollik ko'rsatgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnak bo'layotgan tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

c) ota-onalar umumiy yig'ilishida o'quv yili davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar ta'lim muassasasi hayoti va o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, ijtimoiy me'yorlariga amal qilishlari, o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishilayotgan natijalar bilan tanishtiriladi. O'quv yili yakunida bo'lib o'tgan umum ota-onalar majlisida ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, huquqiy mazmundagi tadbirlarni uyushtirishda alohida ibrat ko'rsatgan, shuningdek alohida yutuqlarga ega bo'lgan bir guruh o'quvchilar rahmatnoma bilan taqdirlanadilar.

d) ijtimoiy-ma'naviy mazmundagi suhbat va maruzalar. Bunday maruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy mazmunda, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzandlar tarbiyasi ishiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishni ta'minlaydi.

2.2. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi.

Ma'lumki, shu kungacha ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini, natijaviyligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan texnologiyalarni o'rganishimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish ko'p bosqichli, murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayon texnologik yondashuvni talab etadi.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda uzluksiz ta'lim jarayonida davlat va jamoatchilik tashkilotlarining boshqaruvini takomillashtirishni, ularning ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir doirasini yanada kengaytirish zarur. O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish mazkur jarayon oldida turgan o'ziga xos vazifalar bilan bog'liqlikda mavjud aniq moddiy-ma'naviy asosni talab etadi. Mazkur vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonining asosini – kutiladigan natijalar va unga erishish usullari, erishish usullarini modellashtirishni talab etuvchi rejalashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni amalga oshirish, bunda esa kishilarning faoliyat va xulq-atvorini boshqarish bilan bog'liqlikdagi pedagogning o'quv-tarbiyaviy faoliyati tashkil etadi.

Odatda, tafakkur jarayoni biror vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, uning dastlabki bosqichi modeli darajada muammoli vaziyatni ko'proq yoki kamroq adekvatli anglanishini o'zida aks ettiradi. Mazkur jarayonning qanday kechishi va rivojlanishi esa, adekvatli ijodiy fikrlash kema-ketligiga bog'liq bo'ladi. Aynan adekvatli (ilmiy) ijodiy fikrlash jarayonida inson taqqoslash, tahlil etish, umulashtirishni amalga oshiradi.

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayoni bilan bog'liqlikda pedagogik vazifalarni tanlab olish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Yo'naltiruvchi bosqich. Mazkur bosqichda o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish, faollashtirish metodlari (matn va ilmiy matn bilan ishlash)ni o'zlashtiradi.

2. Izlanish bosqichi. O'quv vazifalari va topshiriqlari dalil (voqea, hodisa)lardan tashkil topadi va mazkur dalillarning kelib chiqish sabab-oqibatlarini va ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlashni talab etadi. Vazifaning anglanishi faqat qonun (mohiyatli sabab-oqibat aloqadorligi) va uning modeli tasviri asosida hal etilishi mumkin.

3. Shakllantiruvchi bosqich. Mazkur bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda sabab-oqibat aloqadorliklarini aniqlash va modellashtirish asosida vazifalarni hal etishga kirishadilar.


4. Tadqiqotchilik bosqichi. Ushbu bosqichda o'quvchilar ijtimoiy hodisalarni tasnif qilish, vazifalarni hal etish va qarorlarni tahlil etish, ijtimoiy vaziyatlarni o'zida adekvatli aks ettirish, aniq vazifalarni mustaqil hal eta olishga o'rganadilar.

O'quvchilar bilish faoliyatining mazkur darajalarini hisobga olgan holda, ularda sog'lom tafakkurni shakllantirishga imkon beruvchi ijtimoiy pedagogik vazifalarni to'rt guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) elementar modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 2) sodda modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 3) murakkablashtirilgan modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar;
- 4) murakkab modeli muammoli vaziyatlarni hal etishga doir vazifalar.

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlarini modellashtirish lozim. Modellashtirish – obyektarga ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir. Shunday ekan, sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ham ishlab chiqish va amalga oshirishda modellashtirishdan foydalanish ularni yaxlit pedagogik hodisa sifatida uslublarini o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish tizimini quyidagicha tasvirladik:



2.2.1-rasm. Sog'lom tafakkurni shakllantirish tizimi

Ta'lim va tarbiyaga texnologik yondashuv – o'qitish va tarbiyalash natijalariga asoslanib, mazkur jarayonlarning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, ta'lim va tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik o'quvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda shu kungacha amaliyotga joriy etilgan tarbiya va ta'lim texnologiyalari materiallaridan foydalandik. Texnologiyani bayon etish uchun dastlab kutiladigan natija, natijadan kelib chiqib qo'yilgan maqsad hamda oydinlashtirilgan faoliyat vazifalariga to'xtalib o'tish lozim .

<i>Maqsad</i>	Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni va sog'lom turmush tarziga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish va rivojlantirish.
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<p>1) o'quvchi-yoshlarda o'quv-bilish faoliyatiga nisbatan motivatsion tizimni shakllantirish;</p> <p>2) ularda shaxsiy va ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni analitik tahlil qilish, o'z munosabatini qat'iy bildira olish va tanqidiy bildirilgan fikrlarni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish;</p> <p>3) o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'ziga ijobiy munosabatni shakllantirish;</p> <p>4) biror-bir jarayondagi xato va kamchiliklarni to'g'ri anglay bilish, hayotiy muammolarning eng maqbul yechimlarini tanlay bilishni shakllantirish;</p> <p>5) shaxslararo munosabatda sog'lom muhitni yarata olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.</p>
<i>Kutiladigan natija</i>	O'quvchi-yoshlarda tafakkur, tafakkur jarayoni va qonuniyatlariga doir nazariy hamda inson ongini rivojlantirishga doir amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish orqali ularda sog'lom tafakkur yuritish tarzining yorqin namoyon bo'lishiga erishish.

2.2.1-jadval. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning texnologik modeli

O'qituvchi texnologik modelni ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, o'quvchilarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo'yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo'llari, usullarini tanlay bilishi va o'qitish jarayonida qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. So'ngra, mashg'ulot mavzusi, mashg'ulotda ko'riladigan asosiy masalalar, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, mashg'ulotni tashkil etish shakllari, bosqichlari, mashg'ulotda qo'llaniladigan metod, usullar va texnik vositalar texnologik xaritada o'z aksini topadi.

Bosqichlari	Mazmuni	Metod va usullari
<i>Motivatsion- diagnostik</i>	Shakllantirilayotgan xususiyat bilan o'zaro ta'sirga kirishish– bu munosabat, baholash; o'z tajribasiga, o'zining qadriyatlar tizimiga kiritish bilan bog'liq. Mazkur xususiyatga ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish	Muammoli tavsifdagi suhbat, o'yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash
<i>Axborotli-kognitiv</i>	Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarga shakllantirilayotgan xususiyat haqida tushunchalar berish, tasavvurlar hosil qilish, yaxlitlikda bilimlarni tarkib toptirish	Ma'ruza, tushuntirish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, reproduktiv obrazli suhbat, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi
<i>Faoliyatli</i>	Hosil qilingan bilimlar, fikrlash tarzini o'quv faoliyati va muloqotning real hayotiy sharoitlariga kiritish. Sog'lom tafakkurni amaliy topshiriqlarni bajarish, mustaqil ish tayyorlash, mashq qilish yo'li bilan mustahkamlash.	Mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik vaziyatlar, real hayotiy vaziyatlar, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, matn ustida ishlash, pedagogning suggestiv faoliyati.

<i>Qadriyatli</i>	Shakllantirilgan xususiyatni qadriyatlar tizimiga kiritish orqali qadriyatli yo'nalganlikni tarkib toptirish Barqaror e'tiqod va qarashlar tizimining shakllanishi hamda o'zaro birgalikdagi faoliyat malakalarini egallash	Ijtimoiy voqelik, vaziyatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, rolli vaziyatlar, “Tanqidiy fikrlashni aniqlash” metodikasi”, “Fikr bildirish” metodikalari, “Ishontirish maktabi”, “Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish”.
--------------------------	---	--

2.2.5-rasm. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning texnologik xaritasi

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi quyidagi to'rt bosqichga asoslanadi: motivatsion-diagnostik, axborotli-kognitiv, faoliyatli va qadriyatli bosqichlar. Quyida har bir bosqichga tasnif berib o'tamiz.

1. Motivatsion-diagnostik bosqich – o'quvchi-yoshlarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda tafakkur, tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, sog'lom tafakkurni belgilovchi mezonlarni, tafakkur qonuniyatlari va turlarini egallashga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning motivatsion-diagnostik bosqichini loyihalashda mazkur jarayon samaradorligiga erishish va natijaviylikni ta'minlanishi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruriyatini taqozo etadi:

- inson tafakkuri, uning o'ziga xos xususiyatlari ahamiyati va zaruriyatining anglab yetilishi;
- ta'lim va tarbiya jarayoni hamda shaxslararo munosabatlar jarayonida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- o'quvchilarda tafakkur, sog'lom tafakkur, uning qonuniyatlari, fikrlash, anglash, tushunish kabi tushunchalarga oid bilimlarini baholash;

- o'quvchi-yoshlarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini to'g'ri baholay olish, xulosa chiqarish, sog'lom tafakkur yuritish usullarini egallashga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;

- o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoit yaratuvchi ijodiy muhitni yaratish;

- o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda tizimli va refleksiv yondashuv imkoniyatlarining hisobga olinishi.

2. Axborotli-kognitiv bosqich – o'quvchi-yoshlarda shakllantirilishi lozim bo'lgan sog'lom tafakkurga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

Mazkur bosqichda quyidagi dasturlar bo'yicha o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar majmui ishlab chiqilgan:

- 1) nazariy-amaliy mashg'ulot loyihasi (24 soatlik 6 ta mavzuda);
- 2) trening mashg'uloti dasturi (10 soatlik 5 ta mavzuda);
- 3) musataqil ta'lim mavzulari blanki (12 soat);
- 4) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi.

3. Faoliyatli bosqich – o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish. Mazkur bosqichda quyidagi muhim vazifalar amalga oshiriladi:

1) o'quvchilarni yangicha fikrlashga yo'naltirib, ularda sog'lom tafakkurning rivojlanishiga olib keladigan ta'limiy va tarbiyaviy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish;

2) o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlariga erishish;

3) pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi lozim;

4) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'quv-bilish faoliyatini tizimli tashkil etish.

Faoliyatli bosqich real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy va ijtimoiy-qadriyatli xususiyat baxsh etilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat turlarini – “Nima

uchun buni qilyapsiz?”, “Sizda qanday istak bor?”, “Sizningcha bunday holatda qanday yo'l tutish kerak?”, “Uning ijtimoiy natijasi qanday?”, “U boshqalarga nima beradi?”, “Muammoning echimlarini ishlab chiqing. Bildirgan fikrlaringizni muhokama qiling?” kabi jihatlarga e'tiborni qaratishni ko'zda tutadi.

Faoliyat refleksiya, ya'ni faoliyat natijalarini shaxsning o'zi tomonidan baholanishi (“Buni to'g'ri qildimmi?”, “Nimalarni his qildim?”, “Qanday tarzda amalga oshirdim?”, “Natijadan qoniqish hosil qildimmi?”) bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi.

4. Qadriyatli bosqich – hayotiy faoliyati davomida sog'lom tafakkur yuritish tarzini qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'limiy va tarbiyaviy jarayonning yuqori bosqichi.

Qadriyatli bosqichni samarali amalga oshirish quyidagi jihatlarni hisobga olish asosida amalga oshiriladi:

1) har qanday me'yor, talab, axloqiy ideal o'quvchilar tomonidan yakka tarzda qabul qilinishini hisobga olish;

2) qadriyatlarning o'quvchilar tomonidan anglangan tarzda qabul qilinishi va o'zlashtirilishiga erishish;

3) biror qadriyatning ehtiyoj obyektiga aylanishi uchun tarbiyalanuvchi o'z faoliyati maqsadlari hamda uni amalga oshirish shakl, metod va vositalarini aniq belgilay olishi zarurligiga alohida e'tibor qaratish;

4) qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va xissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligiga asoslangan holda amalga oshirilishi zarur.

Mazkur bosqichda asosiy e'tibor, sog'lom tafakkur yuritish tarzini o'quvchilar qadriyatlari tizimiga kiritish, bunda oilaning va ta'lim muassasasining ta'sir imkoniyatlarini oshirish jihatlari alohida e'tibor qaratiladi.

Bosqichlari	Motivatsion-diagnostik	Axborotli-kognitiv	Faoliyatli	Qadriyatli
Mazmuni	Shakllantirilayotgan xususiyat bilan o'zaro ta'sirga kirishish– bu munosabat, baholash; o'z tajribasiga, o'zining qadriyatlar tizimiga kiritish bilan bog'liq. Mazkur xususiyatga ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish	Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarga shakllantirilayotgan xususiyat haqida tushunchalar berish, tasavvurlar hosil qilish, yaxlitlikda bilimlarni tarkib toptirish	Hosil qilingan bilimlar, fikrlash tarzini o'quv faoliyati va muloqotning real hayotiy sharoitlariga kiritish. Sog'lom tafakkurni amaliy topshiriqlarni bajarish, mustaqil ish tayyorlash, mashq qilish yo'li bilan mustahkamlash.	Shakllantirilgan xususiyatni qadriyatlar tizimiga kiritish orqali qadriyatli yo'nalganlikni tarkib toptirish

2.2.3-rasm. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining bosqichlari mazmuni.

2.3. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining didaktik ta'minoti.

Didaktik ta'minot deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan xilma-xil o'quv axborotlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv axborotlari majmuasi tushuniladi.

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;
- 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.
- 3) referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va etarli hajmda bo'lishi, pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida shu narsaga amin bo'ldikki, AL va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida sog'lom tafakkurni shakllantirishga yetarlicha axboriy-didaktik ta'minot yaratilmagan. O'quvchilarning deyarli ko'p vaqti oila davrasida va ta'lim muassasasida o'tadi. Shu sababli, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik shakllarini va ularning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, sog'lom tafakkurni shakllantirish maxsus metodik kursi va amaliy-trening mashg'ulotlari dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi – yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi bosqichlariga asoslangan holda, har bir bosqichida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni quyidagicha loyihalab olish zarur (2.3.1-jadval):

2.3.1-jadval

Bosqichlari	Motivatsion-diagnostik	Axborotli-kognitiv	Faoliyatli	Qadriyatli
Shakllari	Individual, guruhli, ommaviy, munozaralar, treninglar, anjumanlar, suhbatlar.	Individual, guruhli, ommaviy, o'quv mashg'ulotlari, tarbiyaviy soatlar, axborot soatlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, juftliklarda ishlash, treninglar	Individual, guruhli, ommaviy, ekskursiyalar, musobaqalar, konkurslar, tanlovlar, ijodiy ish topshiriqlari.	Individual, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, refleksiya

Metodlari	Muammoli tavsifdagi suhbat, o'yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash	Ma'ruza, tushuntirish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, reproduktiv obrazli suhbat, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi	Mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik vaziyatlar, real hayotiy vaziyatlar, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, matn ustida ishlash, pedagogning suggestiv faoliyati.	Ijtimoiy voqelik, vaziyatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, rolli vaziyatlar, "Tanqidiy fikrlashni aniqlash" metodikasi",
Vositalari	Badiiy adabiyot, o'qituvchi nutqi, radioeshittirishlar, videofilmlar, tarqatma materiallar.	Badiiy-ma'rifiy asarlar, slayd-prezentatsiya, texnik jihozlar, o'quv darsliklari, elektron qo'llanmalar	Videoroliklar, teleko'rsatuvlar, tarqatma materiallar	Radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, jonli muloqotlar, jurnallarda chop etilgan maqolalar, insoniy munosabatlar tizimi.

2.3.1-jadval. O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining shakl, metod va vositalari

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning motivatsion bosqichi haqida gap ketganda eng avvalo, "motiv", "motivlashtirish" tushunchalarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi²².

Motivatsion-diagnostik bosqichni amalga oshirishda biz o'quvchilar guruhida tadqiqot maqsadidan kelib chiqib suhbatlar, munozaralar uyushtirdik. Unda tahlil etish uchun nashriy va badiiy adabiyot materiallaridan hamda shaxs rivojlanishiga oid video lavhalardan foydalandik. Texnologiyaning mazkur bosqichida muammoli tavsifdagi suhbat, o'yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

²² Xodjajev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., - 36b.

Muammoli tavsifdagi suhbat. Mazkur suhbat turi tarbiyalanuvchilar bilan tahliliy-izlanishli tarzda amalga oshiriladi. Savol-javobni tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish zarur:

- 1) savollar o'quvchilarning dunyoqarashiga, ega bo'lgan ma'lumotlariga asoslanishi;
- 2) savollar o'qib eshittirilgan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish bilan cheklanuvchi javoblarni talab etmasligi;
- 3) savollar mazmunining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligiga e'tibor qaratish.

Bunda oila va ta'lim muassasasi bilan bog'liq real hayotiy vaziyatlar, ularning yechimlari, xususiyatlari bilan bog'liqlikda qator muammoli tavsifdagi suhbatlarni amalga oshirish mumkin.

Motivatsion-diagnostik bosqichda keng foydalanishni talab etuvchi metodlardan yana biri bu – munozaradir. **Munozara** – bahslashuvni talab etuvchi biror masalani erkin muhokama qilish. Ta'lim-tarbiya jarayonida bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishdan avval o'quvchilarga quyidagi ko'rsatmalarni eslatib o'tish zarur:

- 1) muammoni muhokama qilishda shay va tayyor bo'l. Muammo nimaga qaratilganligi, uning mohiyatini anglab olgin;
- 2) muammo yuzasidan o'z fikringni bildir, boshqalarga ham o'z fikrini ifodalashga imkon ber;
- 3) boshqalarning fikrini diqqat bilan tingla;
- 4) so'zlayotgan kishining fikrini chalg'itma, ma'qul deb topmagan o'rinlarini belgilab bor, so'ngra so'zga chiqish uchun ruxsat so'ra;
- 5) g'oyalarni tanqid qil, biroq so'zga chiqqan kishini emas. Shaxsiyat bilan bog'liq jummalarni ishlatma;
- 6) munozara ishtirokchilari qabul qilgan qarorlarni hisobga ol, boshqalarning fikrlarini qadrla;
- 7) istalgan yo'l bilan qurollangan holda bahsga g'alabaga erishishga harakat qilma;
- 8) albatta oraliq va yakuniy xulosalarga kelish lozim.

Fikrlar hujumi – mazkur metod qo'yilgan muammo, masala, savolga nisbatan barcha o'quvchilarning o'z fikrini bildirishini va misollar keltirishini ta'minlaydi hamda o'z nuqtai nazaridan yondashishga yo'naltiradi, guruhdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlar bilan o'zining fikrini solishtiradi, taqqoslaydi va xulosaga keladi.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatlari, kamchiliklarini baholay olishi. Bunda har bir o'quvchidan o'z shaxsining rivojlanishida ta'sir ko'rsatgan ijobiy va salbiy omillarni tahlil qilishi va taqqoslashi so'raladi.

Texnologiyaning **axborotli-kognitiv bosqichi** asosida hamkorlikda faoliyatni tashkil etish qoidalari, shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini hosil qilish, voqea-hodisalarni tanqidiy baholay olish qobiliyatini rivojlantirish, voqelikni rivojlanib borishining ehtimoliy variantlarini bashorat qilish va shu asosda mustaqil qaror qabul qila olish kabilar yotadi.

Shu vaqtgacha olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, oila va ta'lim muassasasi hamkorligida o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir yetarlicha didaktik ta'minot yaratilmagan. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirish va tadqiqot natijalariga erishish maqsadida sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir «Shaxs tafakkurining rivojlanishi» nomli maxsus kurs ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Maxsus kurs quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) nazariy va amaliy mashg'ulotlar mavzusi; 2) mustaqil ta'lim topshiriqlari; 3) trening mashg'ulotlari; 4) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi.

«Shaxs tafakkurining rivojlanishi» nomli maxsus kurs dasturi I-II-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'n ikki soat nazariy, o'n ikki soat amaliy, o'n ikki soat mustaqil ta'lim, sakkiz soat trening mashg'uloti va ma'naviy-ma'rifiy tadbir rejasidan iborat. Dasturda o'rin olgan nazariy-amaliy mashg'ulot mavzulari va mustaqil ta'lim topshiriqlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

2.3.2-jadval

«Shaxs tafakkurining rivojlanishi» nomli maxsus kurs dasturining tuzilishi

Mavzularning nomlanishi	Nazariy	Amaliy	Muddati
1. «Sog'lom tafakkur» tushunchasi va mohiyati. Tafakkur turlari va sifatleri	2	2	I-bosqich II-semestr
2. Shaxs tafakkurining rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning o'rni	2	2	I-bosqich II-semestr
3. Sog' tanda - sog'lom aql	2	2	I-bosqich II-semestr
4. Kasbiy bilimlar va ularning rivojlanishi	2	2	II-bosqich I-semestr
5. Shaxs – oila – jamiyat	2	2	II-bosqich I-semestr
6. Shaxslararo munosabatlarda muloqot madaniyati va nutq texnikasi	2	2	II-bosqich I-semestr
Mustaqil ta'lim topshiriqlari	—	Yozma	—
1. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi	—	2	I-bosqich II-semestr
2. Tarix va inson tafakkurining rivojlanishi	—	2	I-bosqich II-semestr
3. I.A.Karimov asarlari tahlili: «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» 1998y.	—	2	I-bosqich II-semestr
4. Sog'lom turmush tarzi asoslari	—	2	II-bosqich I-semestr
5. Inson tafakkurining rivojlanishida adabiyotning o'rni	—	2	II-bosqich I-semestr
6. I.A.Karimov asarlari tahlili: «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» 2008y.	—	2	II-bosqich I-semestr

Dasturni amalga oshirishda o'qituvchidan yuqori pedagogik bilim va malaka talab etiladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda har bir bosqich uchun belgilab berilgan shakl, metod, vositalardan samarali foydalanish hamda o'qituvchining ijodiy yondoshishi maqsadga muvofiq. Quyida mazkur dastur asosida tashkil etilgan ayrim mashg'ulotlar ishlanmalarini keltirib o'tamiz.

1-mashg'ulot. «Sog'lom tafakkur» tushunchasi va mohiyati. Tafakkur turlari va sifatleri. (amaliy mashg'ulot).

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: o'quvchilarda «tafakkur», «sog'lom tafakkur», uning tarkibiy qismlari va tafakkur sifatleri haqida umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mashg'ulotdan kutilayotgan natijalar: a) o'quvchilar «tafakkur», «sog'lom tafakkur», «sog'lom turmush tarzi», «sog'lom tarbiya» kabi tushunchalarning ta'rifi va mohiyatini bilib oladilar; b) tafakkur turlarini farqlashga oid bilimlarning mustahkamlanishi; s) tafakkur sifatlari haqida bilimga ega bo'lishi; d) hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotdagi asosiy tushunchalar: tafakkur, sog'lom tafakkur, erkin va mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur, tafakkur aniqligi va mazmundorligi, tafakkur tashabbuskorligi.

I.Kirish qismi. Mashg'ulotni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad tushuntiriladi. O'qituvchi mashg'ulot mavzusini, bajariladigan ishlar mazmunini e'lon qiladi. Shuningdek, pedagogik vazifalar aniqlashtiriladi, o'quvchilarga hamkorlikda ishlashga oid ko'rsatmalar beriladi hamda baholash tizimi bilan tanishtiriladi.

II.Asosiy qism. «Shaxs sifatlari» mavzuida erkin matn yozish topshirig'i beriladi. O'quvchilar topshiriqni bajarishda bildirilayotgan fikrlarning aniqligiga, uzviy aloqadorligiga, mantiqiyligiga va boyligiga e'tibor berishi lozimligi talab etiladi. So'ngra o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, ijodiy ish topshiriqlarini bajaradi. Ijodiy ish topshiriqlari: 1) tugallanmagan fikrlarni davom ettiring; 2) insonlar uchun eng asosiy qadriyatlarni ko'rsating: a) oilaviy-..., b) kasbiy-..., s) insoniy-..., d) o'quv-bilishga oid-... , 3) keltirilgan matnni tahlil qiling. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish hamda nazorat qilib borish.

III.Yakunlovchi qism. O'quvchilarning javoblari o'qib eshittiriladi. O'quvchilar bilimi baholanadi, topshiriqni bajarishdagi yutuq va kamchiliklar muhokama qilinadi. Mashg'ulot so'ngida yakuniy xulosa va tavsiyalarga kelinadi.

Quyidagi 2.3.3-jadvalda II-bosqich o'quvchilari uchun o'n soatga mo'ljallangan trening mashg'uloti mavzulari aks ettirilgan.

2.3.3-jadval

«Trening mashg'ulotlari» maxsus dasturining tuzilishi

T/r	Mashg'ulotlarning nomlanishi	Amaliy
1.	Hayotiy muvaffaqiyatlar va yutuqlar	2 soat
2.	Mening tasavvurimda hayot	2 soat
3.	Mening kelajakdagi oilam va men	2 soat
4.	Muammolarni qanday hal etish mumkin?	2 soat
5.	Siz o'z sog'ligingizni qanday asraysiz?	2 soat
	JAMI	10 soat

Axborotli-kognitiv bosqich o'z navbatida ikki qismdan tashkil topadi: axboriy va kognitiv. Axboriy darajada sog'lom tafakkur bilan bog'liq nazariy bilimlar egallansa, kognitiv darajada mazkur bilimlarning amaliy-faoliyatli ko'rinishiga o'tkazilishi uchun zaruriy ko'rsatmalar taqdim etiladi.

Mazkur bosqichda ma'ruza, tushuntirish, o'rgatish, namuna ko'rsatish, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining uchinchi – **faoliyatli bosqichining** asosini xilma-xil konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok etish, muloqotning yangi shakllarini loyihalash va amalga oshirish tashkil etadi. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: trening mashg'ulotlarini tashkil etish, sog'lom tafakkur mazmuni bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; o'quvchilar o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlari kerak; oila va ta'lim muassasasining hamkorlik shakllarini yanada rivojlantirish; pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tganlardan iborat bo'lishi kerak.

Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari, reproduktiv obrazli suhbat, trening, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, matn ustida ishlash, hamkorlikda ishlash, pedagogning suggestiv faoliyati kabi metod va usullaridan foydalanish mumkin.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri. **Talab** – o'qituvchining o'quvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'lib, o'quvchining xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'ladi. Bunda ijobiy jihatlar rag'batlantiriladi yoki aksincha nojo'ya harakatlar to'xtatib qo'yiladi.

Istibol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi.

Rag'batlantirish va jazolash-ta'sir etishning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan va maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishdan iborat.

Jamoatchilik fikri-bu usul o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi²³.

Pedagogning suggestiv faoliyati – (lot. Suggest-ishontirish, taklif qilish) o'quvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali va dalillar asosida o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi hamda uni qisman o'zgartiradi. Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taaluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan suggestiv faoliyat usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi bilan o'quvchilar

²³ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. B.55-58

orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Trening metodi. Ta'limning faol metodlari orasida trening etakchi o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlar (I.V.Vachkov, L.P.Grimak, B.M.Masterov, G.A.Sukerman va boshqalar) treningni etakchi tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: sub'ekt-sub'ekt, muammolilik, faollik, jamoaviylik. Bizning tadqiqotimizda esa trening mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq qator usullarni o'z ichiga oluvchi metod sifatida namoyon bo'ladi. Trening turlari orasida ijtimoiy-psixologik treninglar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-psixologik treningning bosh maqsadi – muloqotda kompetentlikni oshirishdir. Keng ma'noda ijtimoiy-psixologik trening deganda, muloqot sohasida egallanadigan alohida bilim va ko'nikmalar, ularni korreksiyalashga muvofiq keluvchi ish shakllari tushuniladi.

Texnologiyaning **qadriyatli bosqichi** baholovchi tavsifga ega bo'lib, shakllantirilayotgan xususiyatni ichki qabul qilish va dunyoqarash tizimiga aylanishini ta'minlaydi. Qadriyatli bosqichning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) o'quvchilarda sog'lom tafakkur yuritishga nisbatan barqaror munosabatlarni qaror toptirish;
- 2) o'zi amalga oshirayotgan hatti-xarakatlari, tafakkurlash tarzi ko'nikmalarini o'quvchilarning o'zlari tomonidan doimiy baholab borilishi;
- 3) faoliyat natijalarini tahlil etish va kelgusidagi faoliyatni maqsadli tashkil etish;
- 4) olingan ma'lumotlardan kelib chiqib korreksion ishlarni tashkil etish

Mazkur bosqichda ijtimoiy voqelik, vaziyatlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, rolli vaziyatlar, jonli muloqot, o'z-o'zini nazorat qilish "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish" kabi metod va usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

“Fikr bildirish” metodi. Mazkur metod tarbiyalanuvchilarning o‘z qadriyatli tasavvurlari bilan bog‘liqlikda fikrlarni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni qo‘llash uchun eng avvalo, baholovchi tavsifga ega fikrlar shkalasi hosil qilinadi. Mazkur fikrlarni baholash uchun “baholovchi so‘zlar” taklif etiladi. Tushunib olishi uchun o‘quvchiga hayotiy misollar keltiriladi va ularga o‘z munosabatini bildirishi lozimligi so‘raladi. O‘quvchi fikr bildirishda “doimo”, “tez-tez”, “ba‘zan”, “hech qachon” kabi javoblardan yoki 5,4,3,2,1-balli baholash tizimidan foydalanadi.

Jonli muloqot – o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan o‘quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatdir. O‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasida tashkil etiladigan jonli muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi:

- o‘quvchilarning psixik holatini mukammal bilishi;
- ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etishi;
- o‘quvchini erkin fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatishi;
- salbiy holatlarni o‘quvchilar jamoasi bilan birgalikda bartaraf etishi;
- o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini qo‘rqmasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini uyg‘otish va boshqalar²⁴.

²⁴ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. B.97-99

II bob bo'yicha xulosa

1. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining asosiy shakllari, usullari va tamoyillari o'rganildi. Shuningdek, ijtimoiy institutlar: oila, mahalla va ta'lim muassasasining hamkorlikdagi faoliyatda bajaradigan vazifalari, majburiyatlari yoritib berildi.

2. Hozirgi kunga kelib, ta'lim-tarbiya jarayonida texnologik yondashuvning keng targ'ib qilinishi, o'quvchi shaxsini rivojlantirishning har bir bosqichini, amalga oshiriladigan pedagogik vazifalarini, kutiladigan natijani oldindan aniqlashtirib olish va harakatlar ketma-ketligini tizimlashtirish pedagogik faoliyatni yanada samaraliroq amalga oshirilishini ta'minlamoqda. Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda, o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini shakllantirdik. Shuningdek, texnologiyani amalga oshirishning didaktik ta'minotini ishlab chiqdik. O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi to'rt bosqichda amalga oshirilishi belgilab olindi:

1) Motivatsion-diaagnostik bosqich – o'quvchi-yoshlarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda tafakkur, tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, sog'lom tafakkurni belgilovchi mezonlarni, tafakkur qonuniyatlari va turlarini egallashga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

2) Axborotli-kognitiv bosqich – o'quvchi-yoshlarda shakllantirilishi lozim bo'lgan sog'lom tafakkurga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

3) Faoliyatli bosqich – o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.

4) Qadriyatli bosqich – hayotiy faoliyati davomida sog'lom tafakkur yuritish tarzini qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'limiy va tarbiyaviy jarayonning yuqori bosqichi.

3. O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasini amaliyotga joriy etish maqsadida uning didaktik ta'minoti yaratildi, ya'ni;

- texnologiyaning har bir bosqichining mazmuni yoritildi;
- sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining modeli va xaritasi ishlab chiqildi;
- texnologiyaning har bir bosqichida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalari aniqlashtirildi hamda qo'llanilish tartibi keltirildi;
- texnologiyaning axborotli-kognitiv bosqichida foydalanish uchun I-II bosqich o'quvchilariga mo'ljallangan «Shaxs tafakkurining rivojlanishi» nomli maxsus kurs dasturi shuningdek II-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan «Trening mashg'ulotlari» kursi ishlab chiqildi. Maxsus kurs dasturlarida keltirilgan mavzular yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.

III bob. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish samaradorligini o'rganish natijalari

3.1. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad – o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish imkonini beruvchi, ular shaxsida ma'naviy yuksalishni ta'minlovchi, tavsiya etilgan pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish mezonlarini aniqlashdan iborat etib belgilandi.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

1. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi faoliyati mazmunini yorituvchi o'quv-me'yoriy hujjatlarni (davlat ta'lim standarti, o'quv reja, fan dasturlari, ma'naviy-marifiy tadbirlar dasturi va h.k) o'rganish asosida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish.

2. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi, texnologiyaning har bir bosqichida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar aniqlashtirildi.

3. Suhbat va anketa so'rovnomalari yordamida o'quvchilarda "sog'lom tafakkur" tushunchasining shakllanganlik darajasi, ularda o'quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi, oila va ta'lim muassasasi faoliyatining diagnostikasi, ta'lim muassasasi o'qituvchilari va o'quvchilarida inson tafakkurining rivojlanishi, unda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayonining mohiyati borasidagi nazariy bilimlari aniqlashtirildi.

4. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik shakllarining mazmun-mohiyatini o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Asoslovchi tajriba bosqichida** o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda pedagogika kollejida tahsil olayotgan talabalarning faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa

so'rovlari, shuningdek, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini yorituvchi hujjatlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanildi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo'nalishi va dasturini muayyan darajada aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot mavzusiga oid etakchi olimlar, pedagoglarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishining 1-bosqichi amalga oshirildi.

2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi hamda mazkur texnologiya asosida ishlab chiqilgan maxsus kurs-dasturlarga binoan amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Bunda o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, hamkorlikda o'qitish, suhbat va anketa so'rovi kabi metodlar yordamida o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga qaratilgan umumiy pedagogik ta'sir hamda mustaqil hayotda sog'lom tafakkur yuritish sifatlarining tarbiyalanishiga katta ahamiyat qaratildi. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy echimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo'llanildi, hamda ular asosida tajriba-sinov mashg'ulotlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatorida o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi blok-modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga erishildi. Tajriba-sinov ishining 2-bosqichi amalga oshirildi.

3. Ta'kidlovchi tajriba bosqichida real hayotiy va pedagogik vaziyatli topshiriqlar metodiga tayangan holda magistrant tomonidan tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi, shuningdek, o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllanganlik darajasining holati aniqlandi. O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllanganlik darajasini baholash uchun mezonlar ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Tajriba-sinov ishining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillarning mavjudligi hisobiga ta'minlandi:

1) o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga qaratilgan metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi;

2) pedagogika kollejarining etarli moddiy-texnik bazaga egaligi;

3) o'quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish;

4) o'quvchi-yoshlarning mustaqil ta'lim olishlariga alohida e'tiborning qaratilganligi;

5) o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayoniga nisbatan tizimli yondoshuvning qaror topganligi.

Tajriba-sinov ishlari 2014-2015, 2015-2016 o'quv yillari mobaynida amalga oshirilib, unga 385 nafar respondent jalb etildi. Tadqiqotning asosiy tajriba-sinov ishlari 1- va 2-Toshkent pedagogika kollejarida amalga oshirildi. Muammoning alohida jihatlarini tadqiq qilishda tajriba-sinov uchun respondent sifatida tanlangan ota-onalar, o'qituvchi hamda o'quvchilar jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida respondentlar teng asosda tajriba (198 ta o'quvchi) va nazorat (187 ta o'quvchi) guruhlariga birlashtirildilar. Tajriba guruhida magistrant tomonidan tavsiya etilayotgan hamda o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurning shakllanishini ta'minlashga yordam beruvchi texnologiya asosida amaliy faoliyat yo'lga qo'yilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa an'anaviy tartibda o'quv-tarbiya ishlari olib borildi.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurning shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

1) bildirilayotgan fikrning ijodiyliги va mustaqilligi;

2) fikrlarning tizimliliги va aniqligi;

3) tafakkurning kengligi va tanqidiyligi;

4) sog'lom turmush tarziga rioya qilish darajasi;

5) shaxslararo munosabatlarning barqarorligi.

Fikrlashning ijodiyliги va mustaqilligi shaxs faolligining yuqori rivojlanganligi, hayotiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarga javob topa olish, muammoni yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar,

qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ulardan oqilona foydalana olish tushuniladi. Fikrni mustaqilligi deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi yechimni va natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyat tushuniladi.

Fikrning tizimliliği va aniqligi shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va bildirilayotgan mulohazalar muayyan tartibda, ichki bog'lanish va munosabatlarda aks etishi, shuningdek nazariy va amaliy ko'nikmalarni shaxs tomonidan tizimli o'zlashtirilishi tushuniladi.

Tafakkurning kengligi va tanqidiyligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'lib, o'zida hayotiy voqea-hodisalarning xususiyatlarini mujassamlashtirgan o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni aks ettiradi. Tanqidiy fikrlovchi shaxs muammo yuzasidan shaxsiy qarorlar qabul qila oladi va uni aniq dalillar bilan asoslay oladi.

Odamlarning turmush tarzi muayyan muhitni tashkil etib, ularning tafakkuri ta'sirida barqarorlashib, ijodiy yo'nalish va mazmun kasb etadi. Ya'ni, turmush tarzining sog'lomlik darajasi va insonning o'z-o'zini sog'lomlashtirishi uning fikrlashini, ongini rivojlantiradi.

Barqarorlik shaxsiy sifat tarzida atrof muhit va ichki olam harakatini tashkillashtirishdir. Shaxslararo munosabatlarning barqarorligi esa o'zida o'quvchining mustaqil turli hayotiy ziddiyatli vaziyatlarni hal etishi, birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga tayyorligini, insonlar bilan muloqotga kirishishda samarali usullarni qo'llay olish ko'nikmalarini aks ettiradi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida o'quvchilarda sog'lom tafakkurni namoyon bo'lishining turli darajalari tavsifiy belgilari aniqlashtirildi.

1. Yuqori daraja mezonlari: o'quvchining o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonishi, shaxsiy tashabbuskorligi, fikrlashning mustqilligi va tanqidiyligi, nutqning boyligi, fikrning mazmundorligi, sog'lom turmush tarziga oid nazariy va

amaliy bilimlarga egaligi, shaxsning o'z faoliyatini mustaqil va tizimli tashkillashtira olishi, muloqotchanlik ko'nikmalariga egaligi, axloqiy sifatlarning yuqori darajada aks etishi.

2. O'rta daraja mezonlari: tanqidiy fikrlay olish, shaxs faolligining rivojlanganligi, muammoni hal etishning samarali usullarini tanlay bilishi, sodir bo'lgan voqea-hodisa yuzasidan mustaqil fikr bildirishi, muloqotchanlik ko'nikmalarining shakllanganligi, o'z-o'zini sog'lomlashtirishga intilishning mavjudligi, birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga tayyorligi.

3. Quyi daraja mezonlari: ijtimoiy fikrni hisobga olgan holda qat'iy qaror qabul qilish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan intilishning mavjudligi, o'quv vazifa va topshiriqlarni erkin o'zlashtirish, ular orasidagi sabab-oqibat va bog'lanishlarni aniqlashi, hayotiy muhitni sog'lom tashkil etishga doir bilimlarning mavjudligi hamda shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishi.

4. Qoniqarsiz daraja mezonlari: fikr yuritishdagi mustaqillikning yaqqol namoyon bo'lmasligi, muqobil fikrlarni e'tirof etishi, qo'yilgan vazifani mustaqil hal etishda qiyinchiliklarning mavjudligi, bildirilayotgan mulohazalarning mantiqan bog'lanmaganligi, shaxslararo munosabatlarning sust rivojlanganligi, birgalikdagi faoliyatga moyilligining yuqori emasligi, hayotiy turmush tarziga e'tiborning sustligi, odamlar orasida shaxsiy fikrini ochiq bayon qila olmaslik.

Asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida respondentlarda inson tafakkuri, sog'lom tafakkurning shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan maxsus savolnoma ishlab chiqildi (1-ilova).

3.2.O'quvchi-yoshlar tafakkurining shakllanganlik darajasi va ularda "sog'lom tafakkur" tushunchasi mohiyatining anglanilishi

O'quvchi-yoshlar deganimizda akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tushunamiz. Bu davrda o'quvchi shaxsi ijtimoiy hayotda, ta'lim muassasasi jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutloqa yangicha mavqei ta'sirida, o'qish va turmush sharoitidagi o'zgarishlar ta'sirida

tarkib topa boshlaydi. Ular ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok eta boshlaydilar.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining o'quv mashg'uloti o'z xususiyati va mazmuni bilan boshqa yosh davridagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturining murakkablashuvi, yangi fanlar va fakultativ kurslarning kiritilishi o'zlashtirishni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu sababli ularning o'qishga munosabati ham o'zgaradi. Bu davrda o'quvchilarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo'lib boradi.

O'spirin tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'quvchi ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo'yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlari o'quvchining fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi narsa va hodisalarning eng muhim belgi va xususiyatlarini mujassamlashtirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, bunga tafakkurning kengligi deyiladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, o'quvchi tashabbuskorlik bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi va ularni oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Tafakkurning tashabbuskorligi deganda o'quvchining o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o'zi topishga intilishini anglaymiz. Agar o'quvchi muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo'lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, bunga samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. O'quvchi tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur ma'lumotning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushura olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, o'quvchining diqqati va qiziqishiga:

ikkinchidan, o'quvchining bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalarga bog'liqdir.

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sirini qay darajada muhimligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishimizda sinaluvchilar guruhida tafakkur, "sog'lom tafakkur" tushunchalarining mohiyatini anglanganlik darajasini aniqlovchi savolnoma o'tkazildi. Olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar jadval va diagrammalarda aks ettirildi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

O'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurning shakllanish dinamikasi

Tajriba-sinov ishi bosqichlari	Sog'lom tafakkur			
	Shakllanmagan		Shakllangan	
	Soni	%	Soni	%
1	2	3	4	5
1-bosqich tajriba avvalida NG	175	93,5%	12	6,5%
2-bosqich tajriba so'ngida NG	133	71,1%	55	28,9%
1-bosqich tajriba avvalida TG	181	91,4%	17	8,6%
2-bosqich tajriba so'ngida TG	61	30,8%	137	69,2%
Tajriba ishi yakunida NG	123	65,7%	64	34,3%
Tajriba ishi yakunida TG	56	28,3%	142	71,7%

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tajriba-sinov ishining 1, 2 va yakunlovchi bosqichda olingan natijalarga asoslangan. Sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi va mazkur texnologiya asosida ishlab chiqilgan maxsus-kursga binoan o'quv faoliyati tashkil etilganda sog'lom tafakkuri shakllangan o'quvchilar soni sezilarli darajada oshdi (8,6% dan 69,2% gacha), bu ko'rsatkichni o'zgarishi uncha sezilarli bo'lmagan nazorat guruhiga solishtirsak (6,5% dan 28,9% gacha), natijalarning ancha jiddiy ekanligi ma'lum bo'ladi.

Tajriba-sinov ishining yakunida tajriba guruhida sog'lom tafakkur shakllangan 142 o'quvchi orasidan:

- 107 ta o'quvchida yuqori daraja mezonlari shakllangan;

- 28 ta o'quvchida o'rta daraja mezonlari shakllangan bo'lib, mazkur o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan barqaror motivatsiya shakllantirildi;

- 7 ta o'quvchida quyi daraja mezonlari shakllangan;

- shuningdek, tajriba guruhining 56 ta o'quvchisida sog'lom tafakkurning shakllanganligi qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, tadqiqot yakunida tajriba guruhining 142 ta o'quvchisida, ya'ni 71.7% ida sog'lom tafakkur shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Nazorat guruhida esa natijalar aksincha. Tadqiqot yakunida nazorat guruhida sog'lom tafakkur shakllangan 74 o'quvchidan:

-26 ta o'quvchida yuqori daraja mezonlari shakllangan;

-29 ta o'quvchida o'rta daraja mezonlari shakllangan bo'lsa;

-9 ta o'quvchida quyi daraja mezonlari shakllangan;

-shuningdek, 123 ta o'quvchisida sog'lom tafakkurning shakllanganligi qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhining 56 ta (28,3%i) o'quvchisida va nazorat guruhining 123 ta (65,7%i) o'quvchisida natijalarning qoniqarsiz ekanligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

-o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasining yuqori emasligi;

-ta'lim muassasasi o'quv rejasida belgilangan fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar;

-o'quvchida mustaqil ta'lim olish, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchanlik ko'nikmalarining rivojlanmaganligi;

-shaxslararo munosabatlarda hamda hamkorlikdagi faoliyatda faollikning ko'zga tashlanmasligi va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz tomonimizdan taklif etilayotgan o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasi an'anaviy o'qitish texnologiyasidan samaraliroq ekan.

3.3. Oila va ta'lim muassasasi hamkorlikdagi faoliyatining o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri

Xalqimizda “bola boshidan” degan naql bejiz aytilmagan. Chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o'sishi va voyaga yetishi uchun asos mavjud. Sog'lom muhit, munosabatlarda iliqlik, o'zaro tushunish mavjud bo'lgan oilada nafaqat farovon va baxtli turmush, balki, farzand o'stirish va voyaga yetkazish munosib amalga oshadi. Shuning uchun farzandning sog'lom tug'ulishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'lib shakllanishi ham oilaga bog'liq.

“Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi”²⁵-, deb ta'kidlaydi A.Munavvarov. Har bir oila o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o'zini o'zi anglash, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o'z aksini topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo munosabatini o'rganishda bularni chetlab o'tish mumkin emas. O'zbek oilalari tuzulishiga quyidagi sifatlar xosdir: ko'p boalalik, oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo'lishi, qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi. Bular albatta, inson bolasining rivojlanishi va shakllanishiga katta ta'sirini ko'rsatadi.

Har bir oilada valeologik turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli ham o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda oila diagnostikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish bo'yicha amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi:

- maqsadni belgilash, ya'ni o'quvchining oiladagi erishilgan yutuqlarini aniqlab, ularga suyangan holda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini hamda qanday yordamga muhtoj ekanligini belgilash;

²⁵ Zunnunov A., Xayrullayev M., To'xliyev B., Xotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: «Sharq», 2000y. – 230b.

- harakatlar algoritmi, ya'ni ota-onalar orasida oila tashxisini o'rganishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko'ra ota-onalarni kichik guruhga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatdir;

- diagnostika asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik-pedagogik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

O'quvchi shaxsining oilaviy turmush tarzi bilan o'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiya darajasi orasidagi aloqadorlikning pedagogik jihatdan ta'minlanganligi hamda ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ularda sog'lom tafakkurni hamda shaxsiy sifatlarning tarkib topib borishini jadallashtiradi.

Shundan kelib chiqib, biz o'z tadqiqot ishimizda oila diagnostikasini amalga oshirdik. Oila diagnostikasini amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o'rganishga doir "Oilada pedagogik muhitni aniqlash" va so'rovnomadani foydalandik. Oila diagnostikasini olib borishda sinaluvchi guruhdagi 72 ta o'quvchining ota-onasi so'rovnomalarni to'ldirishda ishtirok etishdi. So'rovnoma natijalari 3.3.1-jadvalda keltirilgan.

Tashxislash jarayonida biz jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish oilalarning vazifalarini ham inobatga olgan holda tadqiqotlarimizni olib bordik. Psixolog G'.Shoumarov muallifligidagi «Oila psixologiyasi» nomli o'quv qo'llanmada hozirgi kun oilasining quyidagi vazifalari ajratib ko'rsatilgan.

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy tarbiyaviy funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmay, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastlab oilada amalga oshiriladi.

Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaning rekreativ funksiyasi oila a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalashini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki

keksalarg moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan. Oilaning rekreativ funksiyasi o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Oilaning muhim funksiyalaridan yana biri – bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir.

Oilaning felitsitologik vazifasi – (italyancha “felisiti” – baxt degani) – oila a'zolarining baxtiyorlik darajasi bilan o'lchanadi. Oilada er-xotinning bir-birini to'liq tushunishi ularning baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi.

Oilaning boshqaruvchilik vazifasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning relaksatsiya vazifasi bu oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir.

Oila funksiyalarining muvaffiqiyatli bajarilishi har qanday oila baxtini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning o'z vazifalarini muvaffiqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi.


Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliqi oiladagi farzandlarning munosabatlarini

to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota xaftasiga farzandlari tarbiyasiga atigi 1,5 soat, ona 4-5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota – 15 minut, ona – 3 soat vaqtini ajratar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas.

3.3.1-jadval

“Oilada pedagogik muhitni aniqlash” so'rovnoma natijalari ko'rsatkichlari son va foiz (%) hisobida

T/r	Mezonlar	Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		Soni	% da	Soni	% da	Soni	% da
1.	Oiladagi pedagogik muhit darajasi	29	40%	30	42%	13	18%
2.	Sog'lom turmush tarzi	28	38%	32	45%	12	17%
3.	Oilaning ta'lim muassasasi bilan hamkorlikdagi faoliyati darajasi	22	30%	36	50%	14	20%



1-rasm. “Oilada pedagogik muhitni aniqlash” so'rovnoma natijalari ko'rsatkichlarining diagramma ko'rinishi.

Jadval va diagramma natijalariga muvofiq ko'rsatkichlar tahliliga nazar tashlar ekanmiz, sinaluvchilar oilalar guruhida oiladagi pedagogik muhit darajasi – 40%, sog'lom turmush tarzi – 38% va oilaning ta'lim muassasasi bilan

hamkorlikdagi faoliyati darajasi mezon bo'yicha – 30% oilalar yaxshi ko'rsatkichga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu jihat ulardagi pedagogik bilimning yetarlicha ekanligida hamda farzandlar sog'ligini mustahkamlashda ma'suliyatni his qilishida va ularning o'qish faoliyati bilan doimiy qiziqib borishida namoyon bo'ladi. Mazkur oilalar farzandlar uchun ko'proq vaqt ajratishga harakat qilishadi. Berilgan javoblardan shu ma'lum bo'ldiki, ular farzandlarining o'qishdagi do'stlari va o'qituvchilari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega. Hamda ular farzandlarining o'qish faoliyatidagi yutuqlari va muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlashadi.

Shuningdek, 42%, 45% va 50% oilalar o'rta ko'rsatkichga ega ekanliklari aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichga xos oilalarda ham farzandlarning sog'lom rivojlanishiga hamda o'qish faoliyatini olib borishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, lekin mazkur oilalarning yuqori natija ko'rsatgan oilalardan farqli jihati farzandlarga ajratilgan vaqt hajmining kamligidadir. Biroq berilgan javoblarning aksariyatida ota-onalar farzandlarining ertangi kun hayotlari bilan qiziqishini, ularning salomatligiga va o'qib-o'rganishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berishini ta'kidlagan. Bu kabi oilalarda tarbiya olayotgan o'quvchilar xarakterida biror bir ishni amalga oshirishda atrofdagilar fikrini hisobga olmaslik va mustaqil hatti-harakatlarni amalga oshirish ko'zga tashlanadi.

Jadvaldan ma'lumki, 18%, 17% va 20% oilalar quyi darajani tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, mazkur oilalarda keltirilgan mezonlar bo'yicha ko'rsatkichlar qoniqarsiz darajada. Bunday natijaning kelib chiqishiga turli xil obyektiv sabablar bo'lishi mumkin. Bu holatga ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar asosida javob beramiz. Quyi natijaning kelib chiqishiga mazkur holatlar sabab bo'lgan: a) er-xotinning doim ish bilan band bo'lishi; b) bolaning yoki onasi bilan, yoki otasi bilan yashashi; s) oilaviy nizolar (iqtisodiy nochorlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik va boshq.); d) oilalarning noto'liqligi; e) er-xotinning oliy ma'lumotga ega emasligi; f) farzandlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborning kamligi; g) ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi va boshqalar. Shu o'rinda quyidagi ma'lumotni keltirib o'tish lozimki, ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalarda farzandlari o'qiyotgan ta'lim muassasasi

o'qituvchilari reja asosida mazkur oilalar bilan hamkorlikda doimiy ish olib bormaganligi ta'kidlangan.

Savolnomada keltirilgan "Sizning fikringizcha, shaxs rivojlanishida va taraqqiy etishida qaysi ijtimoiy maskan va omil eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?" (% da) savoliga berilgan javob natijalari:

3.3.2-jadval

1.Ijtimoiy maskan va omillar	Oila	Mahalla	Ta'lim muassasasi	Ijtimoiy muhit	Televideniya	Matbuot	Din	Adabiyot	Kinoteatr
2.Ko'rsatkichlar (% da)	75%	42%	44%	33%	26%	8%	11%	7%	5%

Demak, shaxs rivojlanishiga ta'sir etadigan ijtimoiy maskan va omillar orasida oila va oilaviy tarbiya, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi maskanlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri yuqori ekan, farzand tarbiyasi, farzandning barkamol bo'lishida oilaning boshqa ijtimoiy maskanlardan farq qiladigan jihatlarini doimo bilishimiz va yodda tutishimiz zarur. Oilada yoshlar tarbiyasini olib borishda o'ziga xos qoidalar mavjud bo'lib, bu qoidalarni ota-onalar bilishi kerak bo'ladi:

- oilada ota-onalar, farzandlar va boshqa a'zolari bir-birlarini tushunishlari, hurmat qilishlari;

- o'qishni, ishni, mehnatni asosiy ehtiyoj sifatida qarash;

- bekorchilik, dangasalikka berilmaslik;

- oilada qat'iy kun tartibi va rejimga rioya qilish;

- oilada katta kishilarni hurmat qilish va kichiklarni izzat qilish;

- oilada psixologik xotirjamlik, sog'lom muhit yaratish;

- oilaning har bir kishisida mustaqillik, erkinlik, o'ziga ishonch kabi xislatlarni shakllantirish.

Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda oila institutining mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash "Oila sog'lom

ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyilning to’laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

3.4. O’quv faoliyati motivatsiyasining o’quvchilarda sog’lom tafakkurni shakllantirishga ta’siri

Bizga ma’lumki, o’qitish jarayoni o’qituvchi va o’quvchining hamkorlikdagi faoliyati asosida tashkil etiladi. O’qitishning samaradorligi esa o’qituvchining pedagogik bilim va mahoratiga hamda o’quvchining bilim olishga nisbatan o’quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasiga bog’liq. O’quvchida bilim olishga nisbatan qiziqishning rivojlanishida esa albatta ota-ona, ijtimoiy muhit va o’qituvchining pedagogik bilim va mahorati muhim o’rin tutadi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda qo’yilgan maqsadga erishish uchun o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyati motivatsiyasining shakllanganlik darajasi va uning sog’lom tafakkurni shakllantirishga ta’sirini o’rganishni vazifa sifatida belgilab oldik.

Psixologik ma’lumotlarga ko’ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuniing uchun ham ta’lim jarayonida o’zlashtirish, bilimlarni egallash va o’rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o’quvchilarda o’quv motivlari mavjud bo’lishi shart.

“Motiv” (lotin. Movere-harakatga keltiruvchi qiziqish, ehtiyoj) – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog’liq faoliyatga undovchi sabab.

“Motivatsiya” – bu insonni faoliyatga undashning murakkab, ko’p darajali tizimi bo’lib, u o’zida ehtiyojlar, qiziqishlarni motivlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi²⁶.

O’quv faoliyati motivatsiyasi yuzasidan ko’plab olimlar, shu jumladan xorijda X.Xekxauzen, E.Torndayk, Bruner, A.K.Markova, rossiyalik olimlardan P.Ya.Galperin, P.M.Yakobson, M.V.Matyuxin, A.N.Leontov, L.N.Bojovich hamda o’zbek olimlaridan M.G.Davletshin, A.Q.Saitova, E.G’.G’oziyev, F.I.Haydarov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

²⁶ Ilin E.P. Motivatsiya i motivi. – SPB.: Piter, 2000 – s. 512.

Olimlar fikricha, inson faoliyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi motivlardan biri – qiziqishdir. Bilish qiziqishi o'quvchining o'rganish obyektiga emotsional munosabatida namoyon bo'ladi. Rus psixologi L.V.Vigotskiy bu haqida shunday yozgan: “Qiziqish – bola xulqining tabiiy dvigateli, u instinktiv intilishning haqqoniy ifodasi, bolaning faoliyati uning tabiiy ehtiyojlariga mosligi namoyishi. Shuning uchun ham asosiy qoida butun ta'lim-tarbiya tizimini bola qiziqishlarini aniq inobatga olgan holda qurishni talab qiladi... Pedagogik qonun quyidagini ta'kidlaydi: bolani biror faoliyatga undashdan oldin uning ushbu faoliyatga tayyorligini, bolaning bu ish uchun zarur barcha kuchi va imkoniyatlari safarbar etilgani va bola o'zi harakat qilishini, o'qituvchi esa faqat uning faoliyatini boshqarib, yo'naltirib turishini aniqlashidir”²⁷.

Olimlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi.

Hozirgi davrda o'qish motivatsiyasini diagnostika qilishning turli yo'llari tavsiya qilinmoqda: laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan (tabiiy diagnostika uslublarini qo'llash), shuningdek real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan to'ldirish mumkin (A.K.Makorova), bu o'qish motivatsiyasini diagnostika qilish natijalarini tekshirish usullari sifatida xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlaydi.

O'qish motivatsiyasini diagnostika qilishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, eng kamida, quyidagilarni ajratish mumkinligi N.E.Efimova tomonidan tavsiya qilingan, biz ularni quyida keltiramiz:

²⁷ Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – M., 1996., 84-b.

1. Diagnostika o'tkazish uchun asos bo'ladigan ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini belgilash.

2. Uch toifadagi diagnostika uslublarini tanlash, bevosita loyihaviy va bilvosita ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini diagnostika qilishga yo'naltirilgan uslublar.

3. Har bir uslubning ajratilgan ko'rsatkichlarga bo'lgan diagnostikaviy imkoniyatlarini aniqlash.

4. Mazkur metodika natijalarini olishda va namoyon qilishda uslubning metodologik asosini hisobga olish.

5. Metodika matnlarining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi.

6. O'quvchilarning individual xususiyatlari va sifatlarini hisobga olish.

7. Diagnostikani o'tkazish.

Tadqiqotchi olim A.Q.Saitovanning "O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganish"ga bag'ishlangan doktorlik ishida o'quvchilar o'quv faoliyatida eng yuqori hisoblangan motiv o'z-o'zini namoyon qilish va rivojlantirish motividir; o'quv faoliyati o'quvchilarda o'z-o'zini takomillashtirishga, bu esa albatta hamkorlikdagi faoliyatga hamda o'quvchining mustaqil tizimli o'qib o'rganishiga bog'liq. Shundan kelib chiqib, o'quvchilarning o'quv faoliyati motivatsiyasining shakllanganlik darajasini tadqiq etdik.

O'quvchilarda o'quv faoliyati motivatsiyasining shakllanganlik darajasi va uning sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'sirini aniqlash maqsadida "O'quvchi shaxsining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini aniqlash" metodikasidan foydalandik. Bunda o'quv motivatsiyasi yo'nalganligini belgilab beruvchi o'quvchi shaxsining besh guruhdan iborat quyidagi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari keltiriladi:


- shaxsiy g'oyaviy-siyosiy sifatleri.
- kasbiy-ixtisoslik malakalari.
- axloqiy-etik hislatlari.
- tarbiyaviy-pedagogik ko'nikma va sifatlar.
- tashkiliy-ishchanlik fazilatleri.

Mazkur metodika bo'yicha olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar jadval va diagrammalarda aks ettirildi.


3.3.1-jadval

O'quvchilarda o'quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi va uning sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri ko'rsatkichlari

Ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar	Yuqori		O'rta		Quyi	
	Rivojlan ganlik darajasi	Sog'lom tafakkurn i shakllanti rishga ta'siri	Rivojlan ganlik darajasi	Sog'lom tafakkurn i shakllanti rishga ta'siri	Rivojlan ganlik darajasi	Sog'lom tafakkurn i shakllanti rishga ta'siri
1.Shaxsiy g'oyaviy-siyosiy sifatlar	44%	42%	30%	33%	26%	25%
2.Kasbiy-ixtisoslik malakalari	46%	44%	31%	34%	23%	22%
3.Axloqiy-etik hislatlar	43%	42%	33%	31%	26%	23%
4.Tarbiyaviy-pedagogik ko'nikma va sifatlar	41%	40%	35%	38%	24%	22%
5.Mustaqil ishlash va tashkilotchilik fazilatlar	40%	38%	33%	37%	27%	25%



2-rasm. O'quvchilarda o'quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi natijalarining diagrammasi.



3-rasm. O'quv motivatsiyasi rivojlanganlik darajasining o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri natijalari diagrammasi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarda o'quv faoliyati motivlari dastlab oilada ota-ona ta'sirida, o'qituvchining namunaviy pedagogik faoliyati, ijtimoiy muhit, jamiyat talabi va shaxsning o'z ehtiyojlari ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi.

Sinaluvchilar orasida ijtimoiy-pedagogik sifatlarining namoyon bo'lishida o'rta ko'rsatkichi bo'yicha deyarli farq qilmaydi. Bu ko'rsatkichlar asosan 16-17 yoshdagi o'quvchilar tomonidan belgilangan. Bundan ko'rinadiki, mazkur o'quvchilar o'z-o'zini takomillashtirishda va tafakkurini rivojlantirishda kam faollik ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Shu bois, ular hayotiy muammolarni hal etishda oson yo'llar bilan yechishga yoki atrofdagilardan yordam olish lozim deb o'ylaydilar. Ularda har xil masalalarni o'z-o'zidan hal bo'lishini kutishini hamda fikrlarini mustaqil, erkin bildira olmasliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonida talabning ortishi va motivlarning murakkablashuvi natijasida 18-19 yoshli o'quvchilar tomonidan yuqori ko'rsatkichlar belgilangan. Bu holatni ularda o'quv va shaxsiy mustaqillikning ortishi, fikrlashdagi erkinlik, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanganligi, taqqoslash, tizimlashtirish kabi tafakkur sifatlarining rivojlanganlik darajasi bilan izohlash

mumkin. Shuningdek, bu ulardagi har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishda sog'lom tafakkur mezonlarining yetarli darajada shakllanganligi bilan izohlash mumkin.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarda motivlar va sog'lom tafakkur ko'rsatkichlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ma'lum taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi. Ilk o'spirinlik yoshida (16-17) motivlarning to'liq anglanmaganligi o'quvchining o'z shaxsini rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jadvalda keltirilgan ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarning rivojlanganlik darajalari o'rtacha qiymatlari yuqori mezonda-43%, o'rta mezonda-33%, quyi mezonda-25%ni tashkil etgan bo'lsa, mazkur xususiyatlarning o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri darajasi esa yuqori mezonda-41%, o'rta mezonda-34%, quyi mezonda-23%ni tashkil etdi.

Metodika natijalariga ko'ra, yuqori ko'rsatkichlar (43%, 41%)ni ko'rsatgan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasining yuqoriligi, hamkorlikdagi faoliyatning tizimli yo'lga qo'yilganligi va buning sog'lom tafakkurni shakllantirishga ijobiy ta'sir etganligi ma'lum bo'ldi. Quyi ko'rsatkichlar (25%, 23%)ni ko'rsatgan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasining pastligi, o'z shaxsini rivojlantirishga bo'lgan intilishning yaqqol ko'zga tashlanmasligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ularda o'quv rejada belgilangan fanlarni o'zlashtirishda, hamkorlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yishda tayyor emasligi, o'z fikr, mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qilishida qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi.

O'quv faoliyati motivatsiyasi va sog'lom tafakkurning rivojlanishida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyat muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning sog'lom tafakkurini rivojlantirishda darslarda o'quvchilarni izlanishga, axborotlar to'plashga undash va shu asosda ishlashga o'rgatishga alohida e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki izlanish asosida sog'lom fikr yuritish nafaqat o'quv predmetini o'zlashtirishga, ayni paytda o'quvchi tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

III bob bo'yicha xulosalar

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari uch bosqichda (aniqlovchi, shakllantiruvchi va ta'kidlovchi) amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari 2014-2015, 2015-2016 o'quv yillari mobaynida o'tkazilib, respondent sifatida 385 nafar o'quvchi tanlab olindi. Respondentlar tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirildi. Aniqlovchi bosqichda asosiy maqsad sifatida o'quvchi-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish lozimligini aniqlash etib belgilandi. Bu bosqichda o'quvchilar, ota-onalarda o'tkazilgan so'rovnomalar ko'plab o'quvchilar sog'lom tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega emasligi va shu yo'nalishda qo'shimcha o'qib-o'rganishga ehtiyoj sezishlarini ko'rsatib berdi. Shuningdek mazkur bosqichda, oila va ta'lim muassasasi faoliyati diagnostikasining o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga ta'siri tadqiq etildi, olingan ma'lumotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi

Shakllantiruvchi bosqichda 385 ta o'quvchi ishtirok etdi: shundan 198 tasi tajriba guruhiga va 187 tasi nazorat guruhiga birlashtirildi. Ushbu bosqichda tajriba guruhi o'quvchilari bilan sog'lom tafakkurni shakllantirish texnologiyasiga binoan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi, nazorat guruhida esa o'quv jarayoni o'qituvchining amaldagi dasturi asosida davom ettirildi.

Ta'kidlovchi, ya'ni yakuniy bosqichda esa aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda olingan natijalar tizimlashtirildi hamda yakuniy xulosalar ishlab chiqildi

O'quvchilarda sog'lom tafakkurning shakllanganlik darajasi mezonlari aniqlandi. Bular quyidagilar: 1) bildirilayotgan fikrning ijodiyligi va mustaqilligi; 2) fikrlarning tizimlilik va aniqligi; 3) tafakkurning kengligi va tanqidiyligi; 4) sog'lom turmush tarzi darajasi; 5) shaxslararo munosabatlarning barqarorligi.

Xulosalar

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, islohotlarni o'tkazish, ta'lim mazmunini yangilash, boshqaruv sohasini modernizatsiyalash ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchini asosiy subyekt sifatida qarash, o'qitish jarayonida bolaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, o'qitish samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishni tashkil etishi, o'quvchilarning bilimini, tafakkurini rivojlantirishda kommunikativ ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishi, o'quvchilar oilasi bilan hamkorlikdagi faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi o'qituvchining asosiy vazifalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat. 1999 yil. – 152 b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: «Adolat», 1998y. – 17-tom. – 3-15 b.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: «Adolat», 1998y. – 18-tom. – 3-36 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 – yanvardagi “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori. // Xalq so'zi.
5. «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // «Xalq so'zi», - 2006. – 25 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998yil 26 martdagi «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli Qarori.
7. Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami (I-II to'plam). – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. – 6-29 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992y. – 23 b.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq. 1997. – 63 b.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000. – 245 b.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 326-327b.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: « O'zbekiston», 2000y. – 8-tom – 525b.
13. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: « O'zbekiston», 1998y. – 30b.
14. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // «Xalq so'zi». – 2002y. 30 avgust.
15. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. – T.: « O'zbekiston», 2004y. – 12-tom – 243b.

16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 123 b.

17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – “O'zbekiston” Toshkent 2009 y.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

18. Avloniy A. “Turkiy guliston yohud axloq”. – T.: “Sharq”, 1994. 9-17b.

19. Abdullayeva Sh.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2014, N3, 40-45 b.

20. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti. – T.: «TDPU», 2000y. – 19-20b.

20. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T.: «Akademiya», 2001y. – 6-11b.

21. Azizxo'jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. – T.: «Sharq», 1997y. – 21b.

22. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: «TDPU», 2006y.

23. Ataxanova S. Innovatsion ta'lim jarayonida tafakkur. //Sog'lom avlod uchun. 2014y. - N5/4-5b.

24. Andreyeva G.M. Sotsiolnaya psixologiya. – M.: «MGU», 1998. – s.407

25. Bezrukova V.S. Pedagogika. – E.: «Delovaya kniga», 1994. – s. 23-32.

26. Bezrukova V.S. Pedagogika. Proyektivnaya pedagogika. - E.: «Delovaya kniga», 1996. – s.344

27. Bepalko V.P. Pedagogika i professionalniye texnologii obucheniya. – M.: Izdatelstvo prof. obrazavaniya, 2008. – s.336.

28. Boboyev H., G'ofurov Z., Islomov. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyoti. – T.: «Yangi asr avlodi», 2001y. – 240 b.

29. Bono E. “Nestandartnoye mishleniye”. Minsk. 1998 y.

30. Burxanov A., Turg'unov S.T. Psixologiya: maruzalar to'plami. – N.: «NamMPI», 2000Y. – 94 b.

31. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev). – T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1995y. – 91-110 b.

32. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod. redak. V.V.Davidov. – M.: «Pedagogika», 1991. – s. 480

33. Gusinskiy E.N. Obrazavaniye lichnosti. Posobiye dlya prepodavateley. – M.: «Interpraks», 2001.- s. 120

34. Davletshin M.G., Do'stmuhammedova va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 2004y.

35. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1999y. – 30 b.

35. Dj.Dyui. Psixologicheskaya i pedagogichkaya mishleniya. – M.: Sovershenstvo, 1998y. - s.41.
36. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – T.: «Aloqachi», 2006y. – 160 b.
37. Zunnunov A., Xayrullayev M., To'xliyev B., Xotamov N. Pedagogika tarixi. – T.: «Sharq», 2000y. – 230-237 b.
38. Ilin E.P. Motivatsiya i motivi. – SPB.: Piter, 2000 – s. 512.
39. Imomnazarov N., Eshmuhammedov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: «Islom Universiteti», 2001y. – 429-431 b.
40. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008, - 74 b.
41. Ismoilova Z.K. Milliy g'oya va ma'naviy-axloqiy tarbiya. – T.: «Moliya», 2007y. – 70 b.
41. Yo'ldoshev J.G', Ahliddinov R.Sh., Otaboyeva R. Mustaqil O'zbekiston ta'limi. – T.: «Sharq», 1997Y. – 13-17 B.
42. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: «O'qituvchi», 2000y. – 207 b.
43. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: «O'qituvchi», 1994y. – 94 b.
44. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2001y. – 124 b.
45. Karimova V. M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash. – T.: «SHarq», 2000y. - 6 b.
46. Karimova V.M. Fikr tarbiyasi va mustaqil fikrlash. – T.: «Ma'rifat», 1999y. – 15-18 b.
47. Klimov E.A. Psixologiya professionala. – M.: Voronej, 1996. – s. 400
48. Kretu D. “Kriticheskoye mishleniye v visshey shkole”. Mejdunarodniy jurnal o razvitiy mishleniye cherez chteniye i pismo. 2000. N2. 13-16 b.
49. Xudayberganova T., Aytmuratov R. Huquqiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv // Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. – N4 – 77-80 b.
50. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya». 2010y. - 55-58 b., 97-99 b.
51. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., - 36b.
52. Majidov A. Yoshlarda axloqiy fazilatlar qanday tarbiyalanadi: Muammo, mulohaza, taklif. // j. Ma'rifat. – 2014, -27 noyabr.
53. Mavlonova R., To'rayeva R., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 2002y. – 384 b.
53. Maksimova V.N. Integratsiya v sisteme obrazavoniya. Ucheb. Posobiye. – SPb., 1999. – s.131.

54. Maxmudov M. Mustaqillik va ma'naviyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida). – T.: «Sharq», 2001. – 106 b.
55. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – Toshkent.: «O'qituvchi», 1996. – 56b.
56. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2010. – 121 b.
57. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1999. – 200b.
58. Muslimov N. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb hunar ta'limi j. – T.: 2004. – N3. – 24b.
59. Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. – T.: 2010y. - 10-16b.
60. Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – T.: “Ijod dunyosi”, 2002. – 24 b.
61. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped.f.d.....dissert. – T.: 1998. – 280b.
62. Nishonova Z.T. “Mustaqil fikrlash – ijodiyot sari qo'yilgan qadam”. Xalq ta'limi. 1998 y. N6. 58-61 b.
63. Nishonova Z.T. “Mustaqil ijodiy fikrlash”. T.: Fan. 2003 y.
64. Nishonova Z.T. Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: 2005. - 9-10 b.
65. Raxmonov R., Fayziyev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. – T.: «O'zbekiston NMIU», 2008. – 72 b.
66. Sayidaxmedov N.S., Abdurahimov S.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Monografiya. – T.: 2010. – 71 b.
67. Tulenov J., Qodirov B., G'ofurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari. – T.: «Mehnat», 2006. – 191 b.
67. Xasanboyev J. Hasanboyev O.U. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: «Badiiy adabiyot», 2002y. – 78 b.
68. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998. – 188 b.
69. G'aybullayev O. Yoshlar ongiga istiqlol g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – T.: 2005. – N12. – 80b.
70. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. - T.: “O'qituvchi”, 1990y.- 59b.
71. G'oziyev E.G'., Uzoqov H., Tojiyev A.A. Oila etikasi va psixologiyasi. – T.: “O'qituvchi”, 2009. – 128 b.
72. Xaydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi: Monografiya. – T.: “Fan”, 2005y. – 122 b.

72. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: “O’qituvchi”, 2006y. – 297b.

73. Hoshimov K. Safo Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. – T.: «O'qituvchi», 1995y. – 238 b.

74. Shodmonova Sh. Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish: Monografiya – T.: 2011y.- 34-40 b.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz
2. www.ziyo.net
3. www.gov.uz
4. www.muloqot.uz

Ilovalar

1-ilova

O'quvchi-yoshlarda "tafakkur", "sog'lom tafakkur" tushunchalarining anglanganlik darajasini aniqlash so'rovnomasi

1. "Sog'lom tafakkur" tushunchasi mohiyatini Siz qanday sharhlagan bo'lar edingiz?_____

2. Sog'lom tafakkur va sog'lom turmush tarzi tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ko'rsating?_____

3. Mustaqil va tanqidiy tafakkur yuritish deganda nimani tushunasiz?_____

4. Sizningcha, sog'lom tafakkurni shakllantirishda oilaning o'rni qanday darajada?_____

5. O'zingizga va voqea-hodisalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olasizmi?_____

6. O'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda o'qituvchining o'rni qanday deb hisoblaysiz?_____

7. Sog'lom tafakkur sifatlari haqida ma'lumotga egamisiz?_____

8. Oilada, insonlar orasida o'z fikringizni, mulohazalaringizni erkin va asosli bayon qila olasizmi?_____

9. Bundan keyingi hayotingizni qanday tasavvur qilasiz?_____

10. Muhim qaror qabul qilishda Sizga nimalar xalaqit beradi?_____

11. Oilada va o'qishda hamkorlikda faoliyat yurita olasizmi?_____

12. Yaqin-atrofingizdagi insonlarning hayoti Siz uchun qiziqmi?_____

13. Tana va aql salomatligi deganda nimani tushunasiz va bunda Siz qaysi mezonlarga amal qilasiz? _____

To'ldirilgan vaqti:

2-ilova

Metodika: "O'quvchi shaxsining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini aniqlash"

1. Bunda o'quv motivatsiyasi yo'nalganligini belgilab beruvchi o'quvchi shaxsining besh guruhdan iborat quyidagi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari keltiriladi va o'z ahamiyati bo'yicha tegishli tartibda raqamlarni qo'yish so'raladi:

1. Shaxsiy g'oyaviy-siyosiy sifatleri.
2. Kasbiy-ixtisoslik malakalari.
3. Axloqiy-etik hislatlari.
4. Tarbiyaviy-pedagogik ko'nikma va sifatlar.
5. Mustaqil ishlash va tashkilotchilik fazilatleri.

Har bir guruhga kiritilgan sifatleri o'zingiz muhim bo'lmagan deb hisoblasangiz, u holda uni o'chirib tashlang va o'rniga yoqtirganingizni qo'shib qo'ying (1-5-jadvallar).

Har bir guruhdagi alohida fazilatleri ahamiyatliligiga qarab, uni besh balli shkala bilan baholang:

- "5"-talaba shaxsining tizimida mutlaqo zarur deb hisoblanganda qo'yiladi;
- "4"- talaba shaxsining tizimida bu sifat qatnashishi shart;
- "3" -mazkur sifat ishtirok etsa, ko'ngildagidek ish bo'lardi;
- "2"-ushbu sifatning mavjudligi zaruriyatdan tashqari;
- "1"-uni e'tiborsiz qoldirsa bo'ladi.

1-jadval. Shaxsning g‘oyaviy-siyosiy sifatleri.

№	Sifatlar	Ballar
1	Prinsipiallik	
2	Siyosiy savodxonlik	
3	G‘oyaviy e‘tiqod	
4	Jamoat ishlarida faol qatnashish	
5	O‘z ijtimoiy burchini anglash	
6	Tarbiya muammosi muhimligini tushunish	
7	Ijtimoiy-siyosiy fikrlash ko‘nikmasi	
8	Tashkilotchilik qobiliyati	

2-jadval. Kasbiy-ixtisoslik sifatleri.

№	Sifatlar	Ballar
1	O‘qish faoliyati bilan shug‘ullanish	
2	Kasbiy etuklik	
3	O‘qishdagi ijodiy faollik	
4	Mustaqillik	
5	Bilimdonlik	
6	Aqlning tanqidiyligi	
7	Axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish	
8	O‘z fikrini ifodalay olish	
9	Ilmiy-tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmasi	
10	So‘z-mantiq lug‘at boyligi	

3-jadval. Axloqiy-etnik xislatlari.

№	Sifatlar	Ballar
1	O‘ziga talabchanlik	
2	O‘zgalarni hurmat qilish	
3	Kamtarlik	
4	O‘ziga ishonch	
5	Ibolilik	
6	Halollik	
7	Adolatparvarlik	
8	Samimiylik	
9	Beg‘arazlik	
10	Madaniyatlilik	
11	Hamdardlik	
12	Vijdonlilik	

13	Jamoatchilik mehnatini ortiqcha baholamaslik	
14	Yumor hissi	
15	Dilkashlik	
16	O'zini kamol toptirishga intilish	
17	Gumanitar bilimlarga chanqoqlik	
18	Zamonaviylik	
19	O'zini tutish	
20	O'zini nazorat qilish	
21	O'z manfaatini hamma narsadan yuqori qo'ymaslik	
22	Axloq qoidalariga rioya qilish.	

4-jadval. Mustaqil ishlash va tashkilotchilik sifatlari.

№	Sifatlar	Ballar
1	O'qish va ilmiy faoliyatda natijalarni qo'lga kiritish uquvi	
2	Bo'sh vaqtni tashkil qilish uquvchanligi	
3	O'quv faoliyatini tashkil qila olish uquvi	
4	Yondosh kasb- hunar ilmiga qiziqish	
5	Bosh maqsadni ajratish qobiliyati	
6	Jamoadi ijodiy holatni saqlab turish qobiliyati	
7	O'z hamkasblariga g'amxo'rlik	
8	Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati	
9	Tanqidni qabul qila olish qobilyati	
10	O'z xatosini tuzata bilish qobiliyati	
11	Yoqtirgan sohasiga butunlay berilib ketish qobiliyati	
12	Vaqtga iqtisodiy munosabati. Vaqtdan tejab-tergab foydalanish.	

5-jadval. Tarbiyaviy pedagogik sifatlari.

№	Sifatlar	Ballar
1	Boshqalar bilan o'z bilim va tajribasini o'rtoqlashish.	
2	Orqada qolganlarga (o'zlashtirmovchilarga) ko'maklashish	
3	Haqiqatni dalillashtirish va uni tan olish uquvi; haqiqat oldida tiz cho'ka olish uquvi	

4	O'zgalarni ishontirish qobiliyati	
5	Hamkurslari takliflaridan yaxshi jihatini topish (tanlay bilish uquvi)	
6	Ruhini ko'tarish va kayfiyatini barqarorlashtirish topqirligi.	
7	O'z-o'zini sog'lomlashtirish	

3-ilova

Glossariy

O'zbek tilida	Ingliz tilida
Oila	Family
ta'lim	Education
ta'lim muassasasi	educational institution
hamkorlik	Cooperation
nazariya	Theory
o'quvchi	Reader
sog'lom	Healthy

tafakkur	reflect
sog'lom tafakkur	healthy outlook
shakllantirish	the formation of
maktab	school
mahalla	the neighborhood
kontsepsiya	concept
pedagogika	pedagogical
psixologiya	psychology
omillar	factors
texnologiya	technology
didaktik ta'minot	didactic
rivojlanish, rivojlantirish	development , development
tajriba	experience
anglash	consciousness
tushunish	comprehension
daraja	level
faoliyat	activity
diagnostika	diagnostics
motivatsiya	motivation
xulosalar	conclusions
jamiyat	society
muvaffaqiyat	success
qiziqish	interest
ehtiyoj	the need
metod	the method
metodologiya	the methodology
analiz-sintez	analysis - synthesis
taqqoslash	comparison
«kuzatish» metodi	tracking method
dunyoqarash	outlook
jamoat	community
guruh	group
dissertatsiya	thesis
faoliyat	activity
obyekt	positions
maqsad	target
faraz	assuming that
ilmiy tadqiqot	scientific research
muammo	problem
tarbiya	training
tizim	system
suhbat	conversation

so'rovnoma	poll
muammo	problem
shaxs	person
ta'limoti	the teachings of
sezgi	sense
mustaqil tafakkur	independent reflect
tanqidiy tafakkur	critical thinking
ijodiy tafakkur	creative thinking
motiv	motivation
fikrlash	thinking
mustaqil fikrlash	independent thinking
faollik	activist
sog'lom hayot tarzi	healthy lifestyle
dissertatsiya	thesis
magistr	master
ijod	creativity